

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA NAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI***

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

***MAVZU: JADID ADABIYOTIDA MILLIY UYG'ONISH HARAKATINING
BADIY TALQINI***

***5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi)
yo'nalishi bitiruvchisi:Shahnoza HAMROYEVA***

***Ilmiy rahbar: I.M.G'ANIYEV, filologiya fanlari
doktori***

Buxoro 2012

JADID ADABIYOTIDA MILLIY UYG'ONISH HARAKATINING BADIY TALQINI

MUNDARIJA

KIRISH -----

BIRINCHI BOB. XX ASR BOSHIDAGI TARIXIY SHAROIT VA MILLIY UYG'ONISH

1.1. Milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishi.

1.2. Jadidchilik va ma`rifatchilik

IKKINCHI BOB. XX ASR IKKINCHI CHOROGIDAGI OZODLIK HARAKATLARI VA BADIY TAFAKKUR.

2.1. Milliy adabiyot va badiiy tafakkur.

2.2. Milliy adabiyot taraqqiyotida adabiy uyushmalarning roli.

UCHINCHI BOB. FITRAT DRAMALARIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

3.1. "Chin sevish"

3.2. "Hind ixtilolchilari"

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so`ng, adabiyot va san`atning boshqa sohalarida bo`lganidek, adabiyotshunoslik fanida ham yangi davr boshlandi. Uzoq --yillar davomida o`rganilishi taqiq etilgan madaniy merosimizning qatag'on davri bilan bog'liq sahifalari qaytadan tiklanmoqda. M.Behbudiy, A.Avloniy, A. Fitrat, A.Cho`lpon, Elbek singari yozuvchilarning asarlari xalqqa qaytarilib, ularning hayoti va ijodi jiddiy ravishda o`rganilmoqda. Qatag'on davrining boshqa qurbonlari qatori Abdurauf Abdurahim o`g'li Fitrat (1886-1938) hayoti va ijodini yangicha tafakkur nuqtai nazaridan o`rganish mustaqillik davri ehtiyojidir. Garchi Fitrat 1957-yilda fuqaro sifatida oqlangan bo`lsada, mustabid tuzum mustaqillikka qadar uning ijodini targ'ib va tashviq qilish imkoniyatini bermadi. Bu muqaddas vazifa adabiyijtimoiy talab taqozosi bilan kun tartibiga chiqmasidan ilgariroq ba`zi olimlarimiz tomonidan ushbu yozuvchi ijodini o`rganishga jiddiy kirishildi. Ayniqsa, adabiyotshunoslardan B.Qosimov, E.Karimov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, S.Ahmedovlarning Fitrat hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqolalari bu jihatdan e`tiborga loyiqdir. Ushbu adabiyotshunoslar safiga atoqli adib ijodiy merosini o`rganish bo'yicha maxsus ilmiymalakaviy bitiruv ishi ishlari olib borgan yosh olimlar kelib qo`shilishdi. H.Boltaboyev, I.G'aniyev, Q.Jo`rayev, U.Jo`raqulov kabi qator malakaviy bitiruv ishchilarining ishlari fikrimizning dalilidir.

80--yillarning oxiriga kelib, sho`ro tuzumi davrida qatag'on qilingan yozuvchilarning adabiy merosi yuzasidan ilmiy, ilmiyommabop maqolalar vaqtli matbuotda yoritila boshlandi. Mustaqillik bu xayrli ishning izchil va ravon tus olishiga imkoniyat yaratdi. XX asr o`zbek adabiyotini yangidan o`rganish, uning ijtimoiysiyosiyfalsafiy va adabiybadiiy qirralari yaxlit holda olib borildi.

Ilk asarlaridan boshlab milliy uyg'onish g'oyasiga qo'l urgan Fitrat XX asr adabiyotida o`ziga xos salmoqli o`rinni egallaydi. Jamoat arbobi sifatida u

Turkiston mustaqilligi uchun hormaytolmay kurashdi. Mustaqillik uchun olib borilgan kurash tarixni yaxshi bilmasdan turib, uning qadrini to'la baholash mushkul. Tarixiy jarayonni haqqoniy baholash, ro'y bergan voqea va hodisalar mohiyatini to'la idrok etish kelajakda to'g'ri yo'lni tanlash va undan taraqqiyot sari odimlash imkonini beradi.

Fitratning milliy g'oyalari bilan sug'orilgan «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» pyesalarini o'rganish bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyatga molik. O'zbek milliy dramaturgiyasida birinchi bo'lib milliy ozodlik ishlarini ifodalagan bu asarlarning Fitrat ijodida egallagan o'rni juda katta. Ushbu pyesalarni keng va atroflicha tadqiq qilib turib, nafaqat Fitrat ijodini, balki, jadid adabiyotining 70--yillarda mustaqillik uchun olib borgan kurashlarni ham to'la tasavvur etish qiyin.

Bugunga o'zbek adabiyotining yetakchi mavzusi milliy istiqlol g'oyasining ildizlari o'sha --yillar asarlarigaborib taqaladi.

Prezidentimiz I.Karimov risolalaridan birining «Vatansajdagoh kabi muqaddas» deya nomlanishi, fikrimizcha, jadid bobolarimizning 10--yillardayoq ko'targan shiorlariga hamohangdir.

Bularning barchasi deyarli bir asrga yaqin muddat ichida milliy ozodlik, mustaqillik mavzuida yaratilgan adabiyot va san'at asarlarini chuqur va har tomonlama tadqiq etish muhim va dolzarb masalalardan bo'lib turganini ko'rsatadi. Ushbu fikr bevosita Fitrat dramalariga ham taalluqlidir. Millat yashar ekan, katta yo'lga chiqqan mustaqillik g'oyasi kabi uning adabiyoti ham buyukdir.

Mavzuning o'rganilish tarixi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotiga bo'lgan qiziqishni faqatgina mustaqillik davri bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Jadidlar ilk asarlari bilan jamoachilik nazariga tushgan edilar. Shu bois, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti vakillari ijodini o'rganishga, ayniqsa, istiqlol davrida alohida e'tibor qaratildi.

Bizning malakaviy bitiruv ishimizning obyektida jadid asarlari va ularning yirik vakili bo'lmish Fitratning milliy istiqlol mavzuidagi dramalari bo'lgani uchun shu asarlarga bog'liq tadqiqot ishlari va maqolalar bilan chegaralashni lozim topamiz.

Fitrat «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalarini yozgunga qadar (1920-1922) katta ijodiy yoʻlni bosib oʻtdi. Bu davrga kelib Fitrat ijodida jadidchilikning bosh gʻoyasi milliy istiqlol gʻoyasi yetakchi oʻringa chiqdi. Aytish mumkinki, mazkur dramalari bilan Fitrat dunyoqarashi yana bir yuksak bosqichga koʻtarildi.

Fitratning dramalariga adabiy tanqidchilik 20--yillardayoq eʼtiborni qaratgan edi. Bu jihatdan Choʻlpon, V.Mahmud, A. Saʼdiy, B.Pestovskiyning fikrlari diqqatga sazovordir.

30--yillarga kelib Miyon Buzruk Solihov va Hamid Olimjonlar bu safga qoʻshildilar. 40-50--yillarda Fitrat haqida adabiyotshunoslikda hech narsa [deyilmaganidek, uning dramalari toʻgʻrisida aytarli yangi fikr bildirilmadi. 50--yillarning ikkinchi yarmiga kelib Stalin shaxsiga sigʻinish illati tanqid qilingach, mazkur asarlar haqida yana soʻz yuritila boshlandi. Bu jihatdan M.Rahmonov malakaviy bitiruv ishilari eʼtiborga loyikdir.

60--yillarda oʻzbek adabiyotining shoʻro davri tarixiga oid yirik malakaviy bitiruv ishilarida Fitrat dramalari haqida obzor tariqasidagina toʻxtalib oʻtildi.

70--yillarda ham oʻzbek dramaturgiyasi tarixi boʻyicha olib borilgan ilmiy-malakaviy bitiruv ishi ishlarida Fitrat dramalari haqida 30--yillarda bildirilgan fikrlar deyarli takrorlandi.

Bu jihatdan T.Sobirov malakaviy bitiruv ishlari xarakterlidir.

Shuni aytish kerakki, 20--yillarda Choʻlpon va Vadud Mahmudlarning «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» haqida bildirgan fikrlari xolis edi. Shoʻro mafkurasining tazyiqi ostida yuqorida zikr etilgan adabiyotshunoslarning ilmiy asarlarida monografik xarakterdagi malakaviy bitiruv ishilarida Fitrat dramalari bir yoqlamagʻoyaviy zararli, millatchilik aks etgan asarlar sifatida talqin etildi.

80--yillarning ikkinchi yarmiga kelib Fitrat hayoti va ijodi boʻyicha haq gaplar yozila boshlaganidek, uning «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari haqida ham xolis va toʻgʻri fikrlar bildirish tamo-yili sezildi. Faqat rsspublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin bu tamo-yil toʻla namoyon boʻla bordi.

Biz Fitratning «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» asarlarida milliy ozodlik g'oyalari talqinini tekshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, yuqorida qayd etilgan dissertatsiya, risola va maqolalarga suyanan holda mavzuga atroflicha yortishga harakat qildik.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Asrimizniig 10--yillarida shakllana boshlagan milliy dramaturgiya haqidagi ma'lumotlar adabiyotshunoslikda u qadar ko'p emas. Malakaviy bitiruv ishchilar olimlar mustabid tuzumning tazyiqlari tufayli yaqinyaqingacha Fitrat dramalari xususida yirik ilmiy izlanishlar olib borish imkoniga ega bo'lmadilar. Ushbu ijodkor xususida dastlabki jiddiy malakaviy bitiruv ishi Hamid Olimjon tomonidan yaratildi. Shuningdek, Fitrat dramalariga o'z munosabatlarini bildirib o'tgan M.Rahmonov va T.Sobirovlar uning pyessalari burjua millatchiligi ruhidagi asarlar deb, baholashdan nariga o'tmadilar. Fitrat dramaturgiyasi xususida birinchilardan bo'lib yangi davr talablar asosida ilmiy izlanishlar olib borishgan filologiya fanlari doktorlari Q.Jo'raev va I.G'aniyevlar bo'ldi. I.Ganiyev Fitratning boshqa dramalari qatori «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari»ning poetik xususiyatlari haqida ham xolis fikrlarni bayon qilish.

Ushbu malakaviy bitiruv ishi muallifi «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalarini ishning obyekti qilib olib, ularda milliy ozodlik g'oyasining badiiy talqini bilan bog'liq ilmiy masalalarni tadqiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan va mazkur asarlar boshqa adabiyotshunoslarimiz tomonidan shu aspektda hamon o'rganilmagan. Biz mazkur asarlarni 20--yillardagi siyosiy va ijtimoiy voqelik bilan uzviy aloqada tekshirishga alohida e'tiborni qaratdik.

Ushbu malakaviy bitiruv ishi ishida ilgari malakaviy bitiruv ishi doirasiga jalb etilmagan, biroq «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari»ning mohiyatini to'laroq ochishda ahamiyatga ega bo'lgan ayrim ilmiy asarlarga ham ilk bor murojaat etildi. Jumladan, adabiyotshunoslarimiz nazaridan chetda qolib kelgan manba Po'lat Soliyevning «Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi» kitobi shunday asardir.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Mazkur ishdan ko'zlangan maqsad «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalarida milliy

ozodlik g'oyasi qay darajada aks etganini va qanday talqin etishganini ushbu va boshqa birlamchi manbalar asosida o'rganishni, ychupchnning 20--yillardagi ijtimoiysiyosiy voqelikka bo'lpsh muoslb

tshsh, mazkur dramalarning o'z davrida xalq ijtimoiysiyosiy ongaga ko'rsatgan ta'sirini anikdash va uning milliy dramaturgiyamiz tarixida turgan o'niga xolisona baho berishdir.

Malakaviy bitiruv ishi doirasi kuyidagi vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi:

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» pyesalarida milliy ozodlik g'oyasining qay darajada talqin etilganligini aniklash;

dramalardagi milliy ozodlik harakati qaqramonlarining obrazlarini o'rganish;

dramalarning 2030--yillarda ijtimoiysiyosiy voqelikka, shuningdek, xalq oigiga ko'rsatgan ta'sirini anikdash;

dramalarda tasvirlangan voqealarni Hindistondagi milliy ozodlik harakati manzaralari bilan qiyosiy o'rganish;

adabiyotshunoslikning ushbu dramalarga bo'lgan munosabatini baholash;

mazkur pyesalarining milliy dramaturgiyamiz taraqqiyotidagi o'rni belgilash;

dramaturg Fitratning kurashchi ijodkor sifatidagi o'ziga xosligini ko'rsatish.¹

Malakaviy bitiruv ishiimizni yaratishda XX asr o'zbek adabnyoti tarixini yangi tafakkur asosida o'rganayotgan O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, B.Nazarov, U.Dolimov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev, N.Afoqova, D.Quronov va boshqa adabiyotshunos olimlarning fundamental tadqiqotlariga metodologik yo`nalish sifatida tayandi.

BIRINCHI BOB

XX ASR BOSHIDAGI TARIXIY SHAROIT VA MILLIY UYG'ONISH

1.1. Milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishi

Turkistonda milliy uyg'onish yoki jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanish tarixi xolisona o'rganila boshlanganiga qariyb yigirma -yil bo'ldi. Shu davr mobaynida jadidchilik harakati va jadid adabiyoti bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Jadidchilikka bo'lgan qiziqishning tobora o'sayotganligi va mazkur masala bilan Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Turkiya singari mamlakatlardagi olimlarning ham faol shug'ullanayotganligi sababli Turkiston xalqlari tarixining bu murakkab davri bir qadar ravshanlashdi. Biroq xuddi shu hol ko'plab tadqiqotchilarining jadidchilik tarixi bilan mashg'ul bo'layotganliklari tufayli bu tarixning ayrim masalalari yuzasidan birbiriga zid qarashlar va birbirini inkor etuvchi fikrlarning paydo bo'lgani ham sir emas.

Turkistonda jadidchilik harakatining boshlanishi masalasida yaqin vaqtlarga qadar tarixchi va adabiyotshunos olimlar davrasida yakdillik bo'lgan. Ular jadidchilikning XX asr boshlarida Rossiya, Turkiya va Eronda ro'y bergan inqilobiy harakatlar ta'sirida, shuningdek, mustamlaka Turkiston aholisini uyg'otish maqsadida maydonga kelganligi haqida mushtarak fikrda bo'lganlar. Ammo keyingi --yillarda xuddi shu masalada o'zgacha fikr va mulohazalar ham o'rta tashlanmoqda.

O'zbek xalqi tarixining xorijiy malakaviy bitiruv ishchilaridan biri Boymirza Hayitning fikriga ko'ra, jadidchilik XIX asrning oxirlarida boshlangan. U Turkistondagi bu ma'rifatparvarlik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalarini sanaganda, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon singari tom ma'nodagi jadidlar bilan birga Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy singari ma'rifatparvar shoirlarning ham nomlarini tilga olgan. So'nggi --yillarda o'zbek olimlari orasida ham jadidchilik harakatining vujudga kelish vaqtini bir oz oldinga

surish, shuningdek, jadidlar safini yuqoridagi singari kengaytirishga urinish tamoyili koʻzga tashlanmoqda.

Jadidchilikning qachon boshlanganligi oʻta muhim masaladir. Agar biz bu harakatning XIX asr oxirlarida boshlanganligi toʻgʻrisidagi fikrga qoʻshilsak, u holda uning qaysi omillar taʼsirida paydo boʻlganligi va mohiyati masalasiga oydinlik kiritish, shuningdek, uning dastlabki "meva"larini koʻrsatish lozim boʻladi. Krlaversa, Komil Xorazmiy, Muqimiy va Furqat bilan Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Hamza va Abdulla Avloniy oʻrtasidagi jadidona yaqinlikni ham asoslab berish zarur.

Ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun avvalo "jadid" soʻzining qachon va kimlarga nisbatan qoʻllanganligini yana bir bor eslashimiz joiz.

Turkistondagi jadidchilik harakatining tanikdi namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy oʻzining tarjimai holida 1900-yilda uylangani va oila boshligʻi boʻlib qolganligini eslab, bunday yozgan edi: "Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun ish kunlarida ham ishlomoqgʻa toʻgʻri kelganligidan quvvati muhofazam oʻrta daraja boʻlgʻon holda madrasani tashlab chihib ketuvgʻa toʻgʻra keldi. Shul choqlarda oʻzim mehnat ichida yashaganligʻimdan boylarga va mullalarga qarshi sheʼrlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar oʻqishga tutindim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot—gazeta va jurnallar bilan tanishib, oʻqib, maʼlumotimni orttira bordim. "Tarjimon "gazetasini oʻqib, zamondan xabardor boʻldim. Shul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik—yangilik janjali boshlandi. Gazet oʻquvchilarni mullalar "jadidcha" nomi bilan atar edilar. Men ham shu jadidchalar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidchilar toʻdasida ishlay boshladim. "Jadid maktabi " ochib, oʻqituvchilik qila boshladim ".

Bu soʻzlarni oʻzbek jadidlarining dastlabki avlodiga mansub yozuvchi aytmoqda. Agar bu soʻzlarga jiddiy eʼtibor bersak, ularda uch muhim narsa boʻrtib turibdi. Bular, birinchidan, gazeta oʻqigan yoshlarning mullalar tomonidan "jadidchi" deb atalishi boʻlsa, ikkinchidan, Avloniyning 1904-yildan boshlab jadidlar toʻdasida ishlay boshlashi, uchinchidan esa, "jadid maktabi"ni ochishidir.

Agar hozircha shu uch muhim unsumni jadidchilikning asosiy belgilari sifatida qabul qilsak, Komil Xorazmiy, Muqimiy va Furqatlarning faoliyatida bu belgilardan birortasining nish urmaganini ko`ramiz. Zero, ular bilan M.Behbudiy avlodi oldiga tarix va zamon tomonidan qo`yilgan vazifalar mutlaqo boshqaboshqadir.

Agar Abdulla Avloniyning 1878-yili tug`ilgani va o`zbek jadidchilik harakatining otasi hisoblangan Mahmudxo`ja Behbudiydan boryo`g`i uch yoshga kichik ekanligini e`tiborga olsak, uning jadid yozuvchilarning to`ng`ich bo`g`iniga mansubligi ma`lum bo`ladiqoladi. Demak, u 1900-1904--yillar oralig`ida "Tarjimon" gazetasini o`qib, zamondan xabardor bo`lgan va jadidlar to`dasida ishlay boshlagan. Jadidlar bilan qadimlar yoxud qadimchilar o`rtasidagi kurash ham xuddi shu davrda boshlangan.

A. Avloniydan o`n bir yosh kichik bo`lgan Hamzaning "Tarjimon" singari davrning taraqqiyparvar gazetalari bilan tanishuvi esa, 1907-1908--yillarda boshlangan. Uning tarjimai holida bu haqda quyidagi so`zlarni o`qiymiz: "1907-yili, otam hajga ketishi munosabati bilan, birga Qashg`argacha uzatish munosabatila sayohatga borib, birinchi martaba "Vaqt", "Boqchasaroy" gazetalarina o`qishga shundan o`rganib qaytdim. Shundan boshlab kundankun — eski xurofotlarni, madrasa o`qishlarini, xalq tirikchiligidagi o`zgarishlarni, madaniyat, iqtisod degan masalalarni tekshirishga kirisha boshladim".

Hamza "Yigitlar tovushi" degan maqolasida yana shu masalaga qaytib, bunday yozgan: "Ko`p uzoq emas, 1908--yillarda ham madrasada o`qub yurgan vaqtimizda gazetjurnallarni birovlar nomiga yozdurib olub, qo`ltug`imizga yoshurib, shul madrasaning qozon qo`yadigan qorong`u hujralarida eshikni ichidan beklab, o`shanda ham qo`rqubqo`rqub o`qur edik".

A.Avloniy va Hamzaning bu so`zlarini keltirishdan maqsad o`zbek jadidlarining "Tarjimon" singari gazetalari ta`sirida XX asrning boshlarida paydo bo`lganligini tasdiqlashdir.

To`g`ri, Turkistonda boshlangan jadidchilik harakatini birgina "Tarjimon" gazetasi bilan bog`lash to`g`ri emas. Shu --yillarda shakllana boshlagan mahalliy

ziyolilar "Vaqt" va "Tarjimon" gazetolari bilan birga Tatariston, Ozarbayjon, Hindiston va Misrda nashr etilgan gazeta va jurnallarga ham mushtariy bo`lib, ularni ham muntazam ravishda o`qib turganlar.

Sadriddin Ayniy "Qisqacha tarjimai holim" degan xasbi holida yozishicha, yoshlikdagi o`rtoqlaridan biri Hindistonda fors tilida chiqqan "Habl ulmatn", Misrda fors tilida bosilgan "Chehranamo" gazetalarini ham qayerlardandir topib o`qigan.

Shu tarzda XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida Turkistonga yetib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho`lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi tug`ilgan asrning ma`rifatparvarlik g`oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu --yillarda Rossiya, Turkiya va Eronda sodir bo`lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabar ham shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi.

Modomiki, yuqorida nomlari tilga olingan gazetalar yosh avlodning ko`zini ochib, uni XX asrning kirib kelganligi haqidagi haqiqat bilan oshno etgan va uning dunyoqarashida keskin o`zgarish yasagan ekan, demak, mustamlaka sharoitida yashayotgan Turkistonning o`zida bunday gazetalar yo`q edi. Shu birgina faktning o`ziyoq Turkistonda o`sha davrda hukm surgan ijtimoiy, madaniy va ma`rifiy muhit haqida aniq tasavvur beradi.

Bir zamonlar yer kurrasidagi eng qudratli bo`lgan Amir Temur saltanati XIX asrning o`rtalariga kelib, o`zining harbiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini mutlaqo yo`qotgan, uch kichik xonlikka ajralgan va azbaroyi holsizlanganligidan rus qo`shinlari tomonidan osongarov bosib olingan edi. Mustamlaka kishanlari orasida yashayotgan Turkiston xalqlari, bir tomondan, mustamlakachi Chor hokimiyati, ikkinchi tomondan, mahalliy amaldorlar nazorati ostida yashadi. Ana shu ikki tomonlama siquv Turkiston xalqlarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma`rifiy, madaniy va ma`naviy hayotiga ham mislsiz darajada katta salbiy ta`sir o`tkazdi. Nafaqat Chor hokimiyati, balki mahalliy davlat idorasi ham xalqning ijtimoiy ongi oshishi, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lishi, boshqa xalqlar va mamlakatlar hayoti haqida tasavvurga ega bo`lishidan manfaatdor

bo'lmagan. Shuning uchun ham, bir tomondan, Chor hokimiyati, ikkinchi tomondan, mahalliy davlat idorasi ham xalqning ijtimoiy va madaniy hayotini nurlantirishi mumkin bo'lgan har qanday tadbirlarga qarshi tishtirnog'i bilan kurashgan.

Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta'sir o'tkazgan kishilardan biri N.I.Ilminskiy maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktublarining birida bunday fikrni olg'a surgan edi: "Olimlardan va o'ta bilimli o'qituvchilardan ehtiyot bo'linglar. O'ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar". Ilminskiyning ana shunday "dono" maslahatiga amal qilgan Rossiya Ichki ishlar politsiyasi departamenti Turkistondagi har bir ma'rifatli kishini qattiq nazorat ostiga olibgina qolmay, masjid va madrasalarda, kitob bozorlarida xorijiy gazeta va jurnallarning boryo'qigi bilan qiziqdi, taraqqiyparvar nashrlarning Turkistonga kirib kelmasligi uchun barcha Choralarni ko'rdi; bu bilangina kifoyalanmay, mahalliy ziyolilarni ikki qanotga ajratib yuborib, ulamolarni jadidlarga, jadidlarni esa ulamolarga qarshi qo'ydi; din arboblarning o'ta mutaassiblashishiga shartsharoitlar yaratib, ular ixtiyoridagi masjid va madrasalarning ko'payishi va shu orqali ta'sir doiralarining kengayishiga imkoniyat yaratdi. Ana shu tarzda olimlar va o'ta bilimli o'qituvchilar siyosiy nazorat ostiga olinib, o'ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarning Turkistonning ijtimoiy va ma'naviy hayotidagi mavqei oshib bordi. Ayni paytda Chor hokimiyati mahalliy ma'muriyatning ijozati va ulamolarning loqaydligi yoxud jur'atsizligi tufayli Turkistonda fohishaxonalar va ichkilik sotuvchi do'konlarni ochdi. Bu har ikkala razolat o'choqlari, ajdaho singari, mahalliy xalqni sekinasta o'z domiga torta boshladi.

Xo'sh, Qo'qon yoxud Xiva xonligi, yo bo'lmasa, Buxoro amirligidagi davlat arboblari o'rtasida mamlakat va xalqning razolat botqog'iga botayotganini ko'rgan va bunga qarshi bosh ko'targan kishilar bo'lganmi?..

Zamondoshlarning shahodat berishlariga ko'ra, masalan, Buxoro amirining maishat va ayshishratdan boshqa dardi bo'lmagan. Qushbегining sobiq kotiblaridan biri Mirzo Hikmatulloning guvohlik berishiga ko'ra, amir xalq ishiga

butunlay aralashmay yashagan, hatto -yillik kelim va ketimni ham bilmagan. Xiva xoni esa qari bir odam bo`lib, umrining ko`p vaqtini qushlar va gullar bilan o`ynab o`tkazgan. Ular atrofida ham xalq va mamlakat taqdiri bilan yashagan biror amaldor bo`lmagan.

Ana shunday tarixiy sharoitda Markaziy Osiyoni bosib olgan Chor hokimiyati Turkistonning haqiqiy xo`jayinlariga aylandi. Darvoqe, "Novoe vremya" jurnalining 1908 -yilgi sonlaridan birida bosilgan maqola xuddi shunday — "Turkistonning xo`jayinlari" deb nomlangan. Unda, jumladan, bunday de-yilgan: "Bazning so`nggi ikki generalimiz Chernyaev bilan Skobelev issik, iqlimda, jayaubiy tog`larning etaklarida rus qabilasining hukmdorligini mustahkamlash uchun O`rta Osiyoda arslondek kurashdi. Ular dahosi va jasorati bilan, kr.dimgi davrlarda aytishganidek, "rus tojining qimmatbaho durdonalaridan biri " Turkiston ishg`ol etildi ".

Turkistonni "rus tojining qimmatbaho durdonalaridan biri" deb atagan kimsalar uchun, birinchi navbatda, oltin kerak edi. Ular Turkistonni oltin konlaridan iborat o`lka, deb o`ylaganlar. Keyinchalik, Turkistonning faqat er osti xazinalariga emas, balki yer usti boyliklariga ham ega ekanligini bilganlaridan keyin ular minglab mujiklarni Ichki Rossiyadan ko`chirib keltirganlar. "Kelajak muhojir rus qishloqlari erli xalq kishilaridan ko`ra boyroq bo`lishi kerak" degan shior shu davrda rus mustamlakachilik siyosatining ustuvor yo`nalishini belgilab berdi. TTTu shiorga amal qilgan mustamlakachilar mahalliy xalqqa tegishli serhosil erlarni tortib olib, ularni kelgindi mujiklarga bo`lib berdilar. Shu tarzda 1906—1913 --yillarda Turkistonda 116 ta rus qishlog`i vujudga keldi. Bu qishloqlarni tashkil etgan mujiklarning 36,7 foizi hech qanday molmulksiz, 60,9 foizi esa hatto sariq chaqasiz kelgan edi. Chor hokimiyati ana shu mujiklarning boshlarini silab, mahalliy xalqni ezish va feodal qoloqlik sharoitida ushlab turishda ular hukumatning ishonchli suyanchig`i bo`lishlari uchun barcha shartsharoitni yaratdi. Natijada mahalliy xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahvoli chidab bo`lmas darajada mushkullashdi.

Turkiston xalqdarining shu davrdagi hayoti, saviyasi, mentalitetiga xos salbiy xislatlar, illatlar to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun M.Behbudiyning "Padarkush" p'esasi, Fitratning "Munozara"si, Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadyor" hikoyalari va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarini o'qishning o'zi kifoya. CHunonchi, evropaliklar bilan o'zbeklar o'rtasidagi farqni tasvirlashga bag'ishlangan bir she'rida Tavallo bunday yozgan: YOvrupo ahli, siz quloq solingiz, Biz hunarlar yozib tonushtiramiz. Kelturing zanburak, qurol necha xil, Bizni sopqon ila otushtiramiz. Aftomobil, arobangiz qayda, Ho'qand arba bilan chopushtiramiz. Biz bilurmiz, siz to'g'ri so'zni quli, Lek biz yalg'onlar qotushtiramiz. Do'stni dushman edub, solib ig'vo, Gap toshub o'rtaga choqushtiramiz. Qo'lda bid'at maromnomasi bor, Kim yaqin kelsa, biz yopushtiramiz...

"Qo'lda bid'at maromnomasi bor..."— bunday kinoya va piching zahari sochilib turgan satrlarni o'qir ekansiz, asr boshlaridagi Turkiston xalqlari hayoti ko'z oldingizda yaqqol gavdalanadi.

Cho'lpon "Do'xtur Muhammadyor" hikoyasida shu ayanchli hayot manzaralarini yanada aniq va haqqoniy tasvirlab, yozgan edi: "Erta bilan soat 8 da istansag'a chikub, poezdni kutib turdi. Nihoyat, XX asr madaniyati keldi, ajdar kabi pishillib, har tarafga suv chochub... Muhammadyorni vatapidan ayirmoqchi edi. Istansada bir g'arib manzara ediki, Muhammadyorning ko'nglini buzmoqqa boshladi: bir musulmon xurjun yo'qotgan! Biri bora turg'on istansasan nomin bilmay, boshqa istansag'a bilet olib ko'yg'on... va shunga o'xshash dahshatli manzaralar oldida Muqammadyor qotub qoldi.

Nihoyat, ikkinchi zuvanok urilganda, chikub, uchinchi klassdan joy topub o'turdi. Haligi ko'rkunch manzaralar bunda andin ham ziyoda hukm surmoqda edi: bir musulmon birisi bilan urushib burni qonag'on, bir musulmonni poezd ma'murlari tutub olub uradurlar... Muhammadyor chidayolmadi. Poezdning tashqarisig'a chikub, tikka turub, istansani tomosha qila boshlada. Bir armani Qofkrzning qorong'u go'shalaridan kelub istansada do'kon ochub, boy bo'lib, ikki o'g'lini

xukumat maktablarada tarbaya qshtakda ... Va erli musulmonlar esa topgan pullarini to`yga, janozaga sarf qilub, faqirlikda, xorlikda krlmoqda edilar... "

Jadidlarning bu milliy ozodlik harakatiga munosabati haqida juda oz yozilgan. Bu oz ma`lumotlarda ham ularning 1916 -yil qo`zg`oloniga bo`lgan munosabati faqat salbiy baholanib kelingan.

Hamza ijodining ilk malakaviy bitiruv ishichilaridan biri SHarif Rizo "YAngi saodat kurashchisi" (1939) degan maqolasida mazkur masalaga to`xtab, bunday yozgan: "Kechagina "oh, millatim!" deb tilini osiltirib yurgan jadid ziyolilari va o`zbek boylari oq podshoga o`zlarining sodiqliklarini va uning "ko`p yillar" yashashi uchun har qanday og`ir xizmatga tayyorliklarini bildiradilar". SHarif Rizodan to`rt yil avval "Jadid adabiyotining sinfiy mohiyatiga" sarlavhali maqolasida X,amid Olimjon ham bunday so`zlarni aytgan: "Bu vaqtda o`zlarini yangilik tarafdori, "inqalobiy " xalq uchun kurashuvchi qilib ko`rsatib kelgan, hammaga "och ko`zingni ", deb baqiruvchi jadidlar yo`lda chekilib krlidilar. Ular isyonchilar bilan, inqilobiy omma bilan bora olmadilar. Isyonchilar va inqilobchilarning yo`li va ishi ular uchun yot va ko`ldan kelmaydigan bo`lib chiqdi ". Atoqli shoir mazkur masala xususidagi fikrlarini jamlab, "Qo`zg`olonni bosish, isyonni tugatishda jadidlar Chorizsha yordat qildilar ", deb yozgan. Shubhasiz, bu har ikkala yozuvchining jadidlarni masxara qiluvchi yuqoridagi so`zlari sovet mafkurasining talabi bilan aytilgan.

Agar bu har ikkala muallif jadidlarning 1915 --yil qo`zg`oloniga bo`lgan munosabatlari haqida yo`lmayo`lakay fikr bildirgan bo`lsalar, sovet davrining tanikdi tarixchisi Mavlon Vahobov "O`zbek sotsialistik millati" (1960) kitobida mazkur masalaga maxsus o`rin ajratib, jumladan, quyidagilarni yozgan: "...tug`ilib kelayotgan o`zbek milliy burjuaziyasi va uning mafkurachilari bo`lgan jadidlar 1916 -yil qo`zg`oloni davrida podsho xukumatiga qarshi chik, madilar, aksincha, Chorizm va rus burjuaziyasi tarafida bo`ldilar. Shuning uchun Turkistonning o`zbek rayonlaridagi 1916 -yil ko`zg`oloni bir butun xalq, ko`zg`oloniga aylanmasdan, ayrim shahar va qishloh aholisaning yakkamayakka chihishidan

iborat bo'libkrdi... O'zbekmilliy burjuaziyasi ko'zg'olonga raxbarlik hilgssh
takdirda ko'zg'olon katta yutuqlarga erishishi mumkin bo'lardi ".

M.Vahobovning zikr etilgan kitobidan keyin kechgan vaqt mobaynida jadidchilik
harakati va uning namoyandalari okdanibgina qolmay, ularning ijtimoiy, adabiy va
madaniyma'rifiy faoliyati to'g'risida ko'plab kitob, risola va maqolalar yaratildi.
Ammo ularda jadidlarning 1916 -yil voqealariga munosabati masalasiga aniqlik
kiritildi, deyish qiyin.Jadidlar Turkistonning XX asrdagi ijtimoiy-madaniy
hayotida qanchalik muhim o'rin tutgan bo'lmasin, ularning siyosiy partiyaga xos
belgilar — rahbarlik qiluvchi markaz, qat'iy harakat dasturi, nizom va a'zolarga
ega bo'lmaganini nazardan qochirmaslik lozim. Jadidchilik harakati 1905—1917 -
yillarda yangi maktab, matbuot, adabiyot va teatr, shuningdek, namoyishlarni
tashkil qilish orqali xalq, ommasiga muayyan ta'sir o'tkazdi. Lekin bu ta'sir
doirasiga xalq ommasining barcha qatlamlari jalb etildi, deyishga asos yo'q.
Shuning uchun ham na qurolli kuchlari, na boshqa imkoniyatlari bo'lgan
jadidlarning qo'zg'olonning pirovard takdirini bila turib, unga rahbarlik qilishlari
mumkin emas edi. To'g'ri, jadidlar "oqqodsho"ning mardikorlikka olish haqidagi
farmoni munosabati bilan stixiyali boshlangan qo'zg'olondan chetda turishlari, uni
ko'rmaslikka olishlari mumkin emas edi.Shuning uchun ham ular qo'zg'olonning
dastlabki davrida isyonchilar tarafida bo'ldilar, hatto ularning xatti-harakatlarini
qo'llab-quvvatlab turdilar. Lekin Turkistonda harbiy holat e'lon qilinishi bilan aniq
harakat dasturiga ega bo'lmagan ommaning stixiyali harakati ko'ngilsiz
oqibatlarga olib borishi mumkinligini yaxshi bilgan jadidlar isyonchilarga
rahbarlik qilishni o'z zimmalari dan soqit qilib, qo'zg'olonni tinch o'zanga burib
yuborishga urindilar.

Buning, shubhasiz, bir necha sabablari bor. Birinchidan, masalan, 11 iyul' kuni
Toshkentda bo'lib o'tgan qo'zg'olon oqibatida qo'zg'olonchilardan 11 kishi halok
bo'lgan, 15 kishi esa jarohat olgan. Qo'zg'olonchilar boshqa shahar va
qishloqlarda ham shunday talofat ko'rganlar. Ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatdan
o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan ulamo qo'zg'olonga diniy tus
bermoqchi bo'lib, xalqni g'azovatga chaqirgan. G'azovat jazavasiga tushgan

ommaning esa o`zini ham, "oq podsho" farmoniga aloqasi bo`lmagan rus aholisini ham xonavayron qilishi hech gap emas edi. Uchinchidan, vaziyatning jiddiy tus ola boshlaganini ko`rgan Turkiston generalgubernatorligi 17 iyul' kuniyoq o`lkada harbiy holatni joriy qildi. Favqulodda vakolatga ega bo`lgan mahalliy ma`muriyat ommaviy tartibsizlikda ishtirok etgan har bir kishini harbiy holat qonunlariga ko`ra qattiq jazolashi mumkin edi. To`rtinchidan, Turkistonga shu kunga qadar rahbarlik qilgan generalgubernator aholi bilan pachakilashishda ayblanib, uning o`rniga O`rta Osiyoni zabt etishda ishtirok etgan generalad`yutant A.N.Kuropatkin generalgubernator etib tayinlangan va unga favqulodda vakolatlar berilgan edi. Beshinchidan, Chor hokimiyati qo`zg`olonni bostirish uchun o`lkadagi muntazam qurolli kuchlardan tashqari, yana 14 ta batal'on, 33 ta kazak harbiy qismi, 42 ta to`p va 69 ta pulemyot jo`natgan edi. Ana shunday sharoitda jadidlarning 1916 -yil qo`zg`oloniga boshchilik qilishlari xalq ommasini jar yoqasiga etaklash bilan baravar edi. M.Vahobov davom etib, yozgan: "Milliy burjuaziyaning qo`zg`olon vaqtida qilgan xoinligi jadidlarnang xulq-atvorida ochiq namoyon bo`ldi. Jadidlar 1916 -yil qo`zg`oloni davrida xalq, o`rtasida podsho farmoniga so`zsiz bo`ysunish, front orqasidagi rayonlarda ishlash uchun mardikor berish to`g`risida propaganda yurgizdilar. Ular shaharlarda mardikor olishga yordam komissayalari tuzdilar. Bu kolshssiyalar mardikor yoshidagi kishilarni ro`yxatga olish, mardikorga yuborish uchun odamlar yollash, xalqni qo`zg`olon ko`tarishga chaqirgan kishilarni tutib berish kabi ishlarni qildilar... " Sovet tarixchisining jadidlar sha`niga aytgan uzundan-uzoq aybnomasini shu yerda kesib, quyidagi dalillarni tarix fakti sifatida keltirishni xohlardim.

Tarix fanlari doktori, taniqli olim Ziyoev "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash"(1998) degan kitobida 11-iyul kuni Toshkentda ro`y bergan voqealarni sharhlabbunday ma`lumotni bergan: ...Xaloyiq politsiya boshqarmasining mirzasi Terentevnang boshini jarohatlagan. Toshbo`ron orqasida Sebzor dahasining mirshabi Said Ismoiljonov, Shayxantaxur dahasining mirshablari Tillaxo`ja Eshmuhamedov va Doniyorxo`ja Isaxo`jaev ham. yarador qilinadi. Askarlardan uch kishi jarohatlanadi. Olomon boshqarma idorasini

toshbo`ron qilib, uning deraza va eshiklarini sindiradi. Shu paytda xotinlarning qo`zg`olonga kurashayotganini qoralagan Obid usta Azizxo`jaev kaltaklanadi. Bu kishi shahar kasalxonasida o`lgan. Prokuror aybnomasida shu haqda bunday deyilgan: "Marxum Obid usta Azizxo`jaevning ukasi 11 iyul kuni kasalxonaga borganida, akasi jon berishdan oldin shunday deydi: "Men politsiya boshqarmasining tagida turib, shovqinsuron ko`tarish va toshbo`ron qilish erkaklar turganda xotinlarga munosib emas, dedim. Shu ondayoq kishilar va xotinlar meni ko`chaga sudrab olib chiqishdi. Bu erda kimlardir biqshshimga pichoq urdi ".

Bu xotirada tilga olingan Obid usta Azizxo`jaevning jadidlarga hech bir aloqasi yo`q. Biz uning "shovqin-suron ko`tarish va toshbo`ron qilish erkaklar turganda xotinlarga munosib emas", degan so`zlarini oqlamoqchi ham, qoralamoqchi ham emasmiz. Muddaomiz — qo`zg`olonchilarning taxminan shunday so`zlarni aytishi mumkin bo`lgan jadidlarga ham shu tarzda munosabatda bo`lganlarini qayd etishdir. (Oybekning "Qutlug` qon" romanidagi qo`zg`olonchilarning shunday so`zlarni aytgan Abdushukurga bo`lgan munosabatini eslang.)

Obid ustaning ham, jadidlarning ham qo`zg`olonni to`g`ri o`zanga yo`naltirmoqchi bo`lganlarini xoinlik deb baholash to`g`ri emas.

Qurolsiz, uyushmagan, g`oyaviy rahbariga ega bo`lmagan yoki unga bo`ysunmagan ommaning isyon ko`tarish yo`li bilan "oq podsho"ning farmonini bekor qilishi amrimahol edi. Shuning uchun ham jadidlar qo`zg`olonga rahbarlik qilishni emas, balki mardikorlikka olish bilan bog`liq ayrim muammolarni hal qilishni o`z zimmalariga oldilar.

I.2. Jadidchilik va ma`rifatchilik

Asr boshlaridagi turmushning bunday manzaralarini o`z ko`zlari bilan ko`rgan ziyolilar "Tarjimon", "Vaqt" singari gazetalarni o`qiganlaridan keyin ularni bartaraf etish yo`llarini qidirdilar. Ismoil Gasprinskiy o`z gazetasi orqali Turkistonga yangi davr g`oyalarining kelishiga imkon tug`diribgina qolmay, 1893-yili o`zi ham Samarqand va Buxoroga kelib, M. Behbudiy, A.Shakuriy singari

millatning peshqadam kishilari bilan tanishdi. Hatto Buxoroda "usuli jadid" maktabini ochdi. Sekin-asta Samarqand, Qo`qon, Toshkent, Andijon singari shaharlarda ham jadid maktablari tashkil etila boshladi. Sanoqli bo`lsa-da, dastlabki jadidlar paydo bo`ldi. Lekin bu maktablar va ularni tashkil etgan jadidlarning milliy shakllanishi oson kechmadi.

Chor Rossiyasining xufiyalaridan biri Eron va Turkiyadagi milliy ozodlik harakatlari hamda 1905 -yil rus inqilobidan keyingi Buxoro axdi to`g`risida bunday ma`lumotni bergan: "Buxoroda madrasalar ko`p bo`lsada, xalq ortaq nodon, siyosiy fikr degan gaplar hech ham yo`q. Rusiya inqilobi haqida hech narsa anglamaydurlar. Nima bo`lsa ham Buxoroda o`zgarash exdgimoli juda uzokdir ".

Shu xufiya Buxoro axlining siyosiy saviyasi to`g`risida mulohaza yuritib, yana bunday yozgan: "Buxoro bozorlarida uchrasha turg'on qishloqilardan durust ma`lumot ololmadim. Sababi esa, ular, birinchidan, shahart ish bilangina kelganliklaradan. so`zlashib o`lturishga vaqtlari yo`kdur. Ikkinchidan, siyosatdan gaparishga amirning xufiyalaridan qo`rqadurlar, chunki, amirning xufiyalari nihoyatda ko`p bo`lib, siyosiy bir gap eshitsalar, ushlab, darrov zindonga soladilar".

So`nggi yillarda ayrim tarixchi va jurnalistlar XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyatning ana shunday noxush manzaraga ega bo`lishida amir va xonlarning ham aybi katta ekanligini e`tibordan soqit qilib, ular faoliyatiga ijobiy baho berish va ularni xalq dardi bilan yashagan kishilar qilib tasvirlashga urinmoqdalar. Bu mutlaqo noto`g`ri qarashdir. O`zlariga tegishli hududda mustabid tuzumni o`rnatgan bu davlat arboblari xalqni mustamlakachilar bilan birga ezib, hur fikrli kishilarni ta`qib va tazyiq yetib kelganlar. Ana shunday sharoitda jadidlarning o`quv tizimini isloh etish, yangi tipdagi maktablarni ochish, xalqni ma`rifatlashtirishga qaratilgan dastur bilan chiqishlari, jadid maktabi, jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatriga poydevor qo`yishlari ularning ulkan fuqarolik jasoratlari edi.

Ana shu tarzda jadidlar XIX asrning oxirlari — XX asr boshlarida maydonga chikdilar. Lekin ularning tarix sahnasida paydo bo`lishlarida boyagi ikki omil —

tarixiy ijtimoiy sharoit va davrning yangi g'oyalarini o'lg'a surgan gazetalar bilan birga uchinchi omil — Muqimiy va Furqatlar boshlab bergan o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti ham muhim rol o'ynadi. Ammo bu so'z Muqimiy va Furqatlarning ham jadid bo'lganliklarini mutlaqo anglatmaydi.

Jadidlar paydo bo'lgan ilk kunlardan boshlab ular ham Chor hokimiyati, ham mahalliy hukmdorlarning qarshiliklariga duch keldilar. Binobarin, ular xalqni shu ikki zulm o'chog'idan, shu ikki qoloqlik botqog'idan xalos etmoqchi bo'ldilar. Abdulla Badriy "Yosh buxoroliklar kimlar?" degan risolasida jadidlarni ko'zda tutib, bunday yozgan edi: "... onlarning fikriy xayollari va muddaolari biz, beChora va qashshofarni g'urbatdan, ya'ni amirlar, beklar va boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmokdir".

Dastlab asosan ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadi bilangina maydonga kelgan jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida o'zbek jadidchilik harakatining yo'l boshchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U kelajakda milliy bosmaxona va nashriyotni tashkil etish, qo'shni xalqlar hayoti, jumladan, maktab va maorifi bilan tanishish, bu mamlakatlardagi taraqqiyparvar kuchlarning tajribalarini o'rganish va o'zbek jadidlarining xalqaro aloqalarini izga solish uchun Rossiyaning bir qancha sanoat markazlariga va YAqin SHarq mamlakatlariga bordi. Buxoroda tashkil etilgan "Tarbiyai atfol" jamiyatining sa'y harakati bilan Fitrat ikki birodari bilan birga Turkiyaga tahsil ko'rgani bordi. Chor xufiyalarining mahfiy xatlariga qaraganda, u Turkiyada bo'lganida "Ittihad va taraqqiy" tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va hatto Buxoroga qaytib kelganidan keyin ham shu tashkilot bilan aloqasini uzmay, islomparastlik yo'nalishidagi gazetalarga qatnashib turdi. Fitratning yosh usmonlilar harakati bilan yaqinlashib, Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitdan keskin farq qiluvchi Turkiyadagi milliy ozodlik harakati bilan yaqindan tanishishi uning o'zbek jadidchilik harakati uchun dasturiy ahamiyatiga ega bo'lgan "Munozara", "X,ind sayyohi bayonoti" singari asarlarini yozishga imkoniyat yaratdi. Turkiyada chop etilib, Buxoroda yashirin ravishda tarqatilgan bu asarlar buxorolik yoshlar

dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ana shu tarzda jadidlar tajriba orttirib va saflarini tobora kengaytirib bordilar.

SHunday qilib, jadidchilik XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodad qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqdarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish hamda pirovardida erk va hurriyat g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o'zining shakllanish yo'lini bosib o'tar ekan, asr boshlaridan 1917 -yil fevral' inqilobiga qadar bo'lgan birinchi bosqichida nafaqat ma'rifiy, balki ijtimoiy harakat sifatida ham uzilkesil rasmiylashdi. Fevral' inqilobining ro'y berishi va Chor hokimiyatning falajlanishi bilan u o'zining pirovard siyosiy maqsadi — mustaqil davlatni barpo etish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi, Lekin bu harakatning kuchli va birlashgan partiya yo tashkilotga ega bo'lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg'ota olmaganligi sababli uning mustaqil o'zbek davlatini barpo etish orzusi ro'yobga chiqmadi. X,ali oyoqqa turib ulgurmagan yosh sovet davlati Turkiston Muxtoriyat hukumatini go'daklik paytidayoq majakdab tashladi.

Jadidchilik harakati va uning namoyandalarini yoqtirmagan bol'sheviklar bu harakatni faqat ma'rifiy harakat deb baholab, ularni siyosiy kaltabinlikda ayblab keldilar. Jadidchilik harakatining ulkan arboblari va tashkilotchilaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov 1927 -yilda yozgan maqolasida bol'sheviklar qo'ygan bu aybga javoban bunday so'zlarni yozgan edi: "Chor hukumatini yo'krtish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishi yashirin emas. Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqacha ta'bir bilan aytganda, do'konda o'ltirib nasiya yozadurg'on xodimlar etkazsak. Bu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq, bu yoqni mulohaza qilsun ".

Munavvar qori Abdurashidxonovning bu so'zlariga tayanib aytish mumkinki, jadid maktabini tuzishdan maqsad, bol'sheviklar aytganidek, savdo xodimlarinigina tayyorlash emas, balki xalqning umumiy saviyasini ko'tarish, zamonaviy fanlarni

egallagan injener, vrach, jurnalist, yuristdan tortib davlat arbobigacha bo'lgan kishilarni tarbiyalash va ular yordamida davlat idoralarini erlilashtirish, shu tarzda mustamlakachilarni Turkiston tasarrufidan siqib chiqarish edi. Jadidlar ana shu maqsadni amalga oshirish uchun "usuli jadid" maktablarini tashkil etibgina qolmay, ayni paytda milliy matbuot, adabiyot va teatrni yaratishga ham katta e'tibor berdilar va jadidchilik harakatining bu jabhalari orqali Turkiston xalqlari hayotini tubdan o'zgartirib, mustaqil o'zbek davlatini qurmoqchi bo'ldilar.

Turkistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o'rgangan frantsuz razvedkachisi mayor Lyakosta 1906 -yilda o'z mamlakatiga yo'llagan xufiyanomasida bunday yozgan edi: "Turkiston o'lkasidagi eng e'tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsialdemokratlar (bol'sheviklar va men'sheviklar) yoki sotsialinqilobchilar (eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki o'zbek jadidlaridir ".

O'z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga molik vazifani qo'ygan jadidlar 1906 -yil yanvarida Peterburgda bo'lib o'tgan Umumrusiya musulmonlari qurultoyiga o'z vakillarini yashirincha yuborib, Rossiya tasarrufida yashagan boshqa musulmon xalqdar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa o'rnatmoqchi bo'lganlar. Bu vaqtda o'zbek jadidlari, Qozon tatarlari kabi, har tomonlama shakllangan milliy dasturlariga ega bo'lgan, lekin yaqin kelajakda rus istibdodiga jiddiy zarba berish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Ammo ularning bu niyatlaridan xabardor bo'lgan bol'sheviklar Osipov qo'zg'olonidan keyin ko'plab jadidlarni qirib tashladilar. O'z mustabid davlatining dushmani deb bilgan Buxoro amiri ham jadidlarni qirishda bol'sheviklardan zarracha orqada qolmadi.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lish va yakunlanish tarixi, shubhasiz, faqat shu nuqtalardangina iborat emas. O'zbekistonning yaratilajak yangi tarixida xalqimiz hayotining bu muhim davrini to'g'ri va har tomonlama mukammal yoritish uchun nafaqat respublikamizning ochiq va yopiq arxivlari, balki, birinchi navbatda, Moskvadagi FSB va boshqa arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarni puxta o'rganishimiz, ularda mavjud bo'lgan fakt va ma'lumotlardan to'g'ri xulosalar chiqara olishimiz lozim. Bunday yangi ma'lumotlarni xorijda faoliyat

ko`rsatayotgan olimlarning ishlaridan ham topishimiz mumkin. Masalan, yaqinda vafot etgan Boymirza Hayitning "Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi" degan maqolasida islom dinining tanikdi tashviqotchisi Abdurashid Ibrohimov haqida bunday maroqli ma`lumot berilgan: "Milliy va sayosiy xurayat orzusi, — deb yozgan edi muallif, — jadidchilik harakatining bir parchasi ekashshgpni ilk bora o`rtaga tashlagan odam aslan Buxoro fuqarosi, lekin Sibiriyada yashagan krzi Abdurashid Ibrohim (18581940) bo`lgan edi".

Biz Abdurashid Ibrohimovning faoliyati turli qirralarga ega bo`lganini, uning hatto Yaponiyaga borib, yapon fuqarolari o`rtasida islomiy targ`ibotni muvaffaqiyat bilan olib borgani va Tokioda musulmon masjidini ochganini bilsakda, uning jadidchi sifatida olib borgan ishlaridan bexabarmiz. Binobarin, bizga noma`lum bo`lgan bunday kishilar (ular esa Tatariston va Boshqirdistonda talaygina bo`lishgan) faoliyatini o`rganish jadidchilik harakatining mumkin qadar to`la manzarasini tiklash imkonini berdi.

IKKINCHI BOB

XX ASR IKKINCHI CHOROGIDAGI OZODLIK HARAKATLARI VA BADIY TAFAKKUR.

II.1. Milliy adabiyot va badiiy tafakkur.

Har bir adabiyotning milliyligi shu xalq folklori va mumtoz adabiyotining barhayot an`analari bilan, bu an`analarning adabiy jarayondagi real o`rni va ishtiroki bilan belgilanadi. Holbuki, partiya milliy adabiyotlarni shu an`analardan mahrum etish, uning adabiy hodisa sifatida yashashi uchun zarur bo`lgan zaminni barbod qilish uchun tinmay kurashdi.

Sobiq sovet Sharqi adabiyotlari bilimdonlaridan yana biri — K.Zelinskiyning "Oktyabr' va milliy adabiyotlar" nomli malakaviy bitiruv ishiidagi quyidagi so`zlarni o`qib, hayratlanmasdan ilojimiz yo`q. "Fol`klor an`analarining roli ikki xil: ijobiy va salbiy bo`lishi mumkin ", deb hisoblagan olim bunday yozadi: "Xalq ajodi adabiyotni mehnatkash xalq hayotining hayotbaxsh an`analari, hamisha taraqqiyotda bo`lgan obrazli xalq, tshshning boyligi va tarovati bilan yashnatadi. Ammo fol`klor o`zida eskirgan shakllar va tasviriy vositalarni, ba`zan esa o`tmishdagi hokim davra tomonidan majburan kiritilgan. xalqqa yot mafkura unsurlarini elitishi mumkin ". Tanqidchi milliy adabiy an`analarning sobiq SSSR xalqlari adabiyotlaridagi o`rniga bunday ehtiyotkorlik bilan yondashar ekan, bir maqsadni kuzatadi. U ham bo`lsa shuki, butungi adabiyotning taraqqiyot darajasini roman, drama, doston (poema) singari epik janrlar tashkil etar ekan, demak, milliy adabiyotlar o`z an`analariga emas, balki rus adabiyoti tajribasiga tayangan holdagina zamonaviy epos namunalarini yaratishlari mumkin. Boshqacha aytganda, K.Zelinskiy milliy adabiyotlarni milliy an`analardan qochishga, rus adabiyoti tajribalaridan ko`proq bahramand bo`lishga, ya`ni ruslashtirishga da`vat qiladi. O`z-o`zidan ma`lumki, bunday qarashga ega bo`lgan tanqidchi, masalan, o`zbek adabiyotining turk adabiyoti tajribalaridan foydalanishini, turkiy xalqlar adabiyotlarining hayotbaxsh an`analarini davom ettirishni xush ko`rmaydi va buni

millatchilikka yo`yadi. "Millatchilik kayfiyatiga ega bo`lga tatarlar va ukrainlar, beloruslar va chuvashlar, buryatlar va tojiklar, o`zbeklar va armanlar, — deb yozadi u, — yangi tushunchalar uchun o`z tillarshshng arxaik shakllaridan yoxud hotto xorijiy tillardan so`zlar axtardilar. SHarq respublikalaradagi millatchalar fors, turk va arab tillariga ko`z tikdilar ".

K.Zelinskiy singari adabiyotshunoslarning g`ashiga tekkan hodisalar partiya tomonidan, sotsialistik realizmni o`ylab topgan "daholar" tomonidan hali kurtak paytidayoq yanchib tashlandi. O`tmishni ideallashtirish, panturkizm, panislomizm, yagona madaniyat nazariyasiga qarshi kurash shiorlari ostida o`zbek adabiyotini ona zamin bilan, turkiy madaniyatlari olami bilan bog`lovchi rishtalar uzib tashlandi. Oqibatda o`zbek adabiyoti faqat rus adabiyoti ikdimida nafas olib, o`zining milliy ildizidan, milliy ozuqa manbalaridan mahrum etilayozdi.

G`afur G`ulom Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlarida Berlin radiosidan berilgan antisemitizm ruhida eshittirishga javoban "Men yahudiy" degan she`r bilan chikdi. Oradan ikki -yil o`tgach, Hamid Olimjon o`zbek xalqining sovg`asalomini olib borgan delegatsiya tarkibida front hayoti bilan tanishar ekan, "Rossiya" she`rini yozib, unda G`afur G`ulom obrazidan ilhomlangan holda, "Rossiya, Rossiya, mening Vatanim, Men sening o`g`lingman, emasman mehmon", deb rus tuprog`i uchun qurbon bo`lishga tayyor ekanligini aytdi. Biz uzoq --yillar mobaynida bu she`rni, ayniqsa, mazkur satrlarni grajdanlik lirikasining eng yuksak namunasi sifatida talqin qilib keldik. Lekin bu satrlarning mantiqan dalillanmaganini sezmadik. Zeroki, bizning qonimizga allaqachon ruslashish mayllari kirib bo`lgan edi. Shuning uchun ham biz Hamid Olimjonning o`zini nima uchun Sovetlar Vatanining emas, ayni Rossiyaning farzandi ekanligini, nima uchun Sovetlar Vatanini emas, ayni Rossiyani tarannum etganini o`ylab ham ko`rmadik. Hamid Olimjon esa partiyaning uzoq --yillar davomida olib borgan tashviqot va targ`ibotiga ishonib, sovetlar mamlakatidagi barcha xalqlarni teng va shu bilan birga baxtiyor, deb o`ylagan edi.

Mana bu misralarga e`tibor bering:

*Nevskiy uxlagan buyuk beshikda
Uyg'onmoq o'zi ham oliy bir havas.
Pushkin paydo bo'lgan har bir eshikda
Navoiy sharafiga yashar muqaddas.*

Yo`q, Pushkinni e`zozlovchi har bir rus xonadoni, ayrim istisnolarni e`tibordan soqit qilganda, hech qachon Navoiyni bilmagan, o`qimagan, sharaflamagan. Bilishni ham, o`qishni ham, sharaflashni ham istamagan. Sirasini aytganda, biz, o`zbeklarning o`zimiz ham Navoiyni bir chekkaga surib qo`yib, Pushkinni tarjima qilib, nashr etaverganmiz. Furqatdan boshlab qariyb barcha mashhur shoirlarimiz, ma`rifatparvarlarimiz bizda milliy g`urur tuyg`usini emas, rus madaniyati, fani va texnikasi oldida hayrat tuyg`usini tarbiyalab kelishgan. G`afur G`ulom "Ulug' rus xalqiga" she`rida o`z nomidan "A`lo tashakkurimni rus xalqiga aytaman, Mening insonligimdan u berdi menga xabar", deb, o`zbek xalqining kuychisi sifatida esa "Ijodkor zehnimizga qanot bergan o`zingsan", "Yana ham balandroq uch, yana ham osmon bo`l!", deb "og'a xalq"ni duo qilgan. Xo`sh, bu satrlardagi "osmon bo`l" degani nima? Butun er yuzini egallab, boshqa xalqdar ustidan ham quyosh bo`lib nur soch, bulut bo`lib suvga serob et, momaguldirak bo`lib titrat va chaqmoq bo`lib dahshatga sol, degani emasmi?!

Atoqli shoirlarimiz bilib-bilmay o`z she`rlari bilan, romannavislarimiz esa yostiqlikdek- yostiqlikdek asarlari bilan o`z xalqini ruslashtirish jarayoniga katta hissa qo`shdilar. Amin Umariy qizi Alfiyaga bag`ishlangan "Quyosh jarchisi" she`rida ana shu jarayonning qanday kechganini ko`rsatuvchi bunday satrlarni yozgan: Tiling chuchuk hali... Kuylab "Katyusha", Yaslini hayratga solasan, qizim. Kichik grajdansan... Baxting hamisha Soyaboning bo`lsin, yasha sen, qizim!

Mamulya, vstavay! debon har safar Baxtli oilani uyg`otuvchisan. O, quyosh jarchisi! Berib xush xabar, Hayot rubobini sayratuvchisan.

Bu she`rda tasvirlangan oilaning o`zbek xalqiga hech bir aloqasi sezilmaydi. Qizning ismida ham, kuylayotgan qo`shig`ida ham, onasiga qilgan murojaatida ham biror o`zbekona ruh yo`q. Zero, Amin Umariy partiya g`oyalariga to`lato`kis

ishonib, o'zbek xalqining hayotini tasvirlashni milliy mahdudlik deb bilgan va shaxsiy hayotida ham, ijodida ham ana shu mahdudlikdan qochishga intilgan yoshlardan edi. U tasvir etgan o'zbek bahorida ham milliy ranglar uchramaydi, milliy tarovat yo`q:

She`r yozaman... Yurak to`lqinda, Sahrolarda bahor ko`rinar. Yarim oqshom, sahar ko`rinar akatsiya gullagan tunda.

Akatsiya gullamoqdadir,
Oq shohidan uning ko`ylagi.
Shabbodada pirpir etagi
Hilpiraydi... Anqiydi atir.

Bunday misollarni o'zbek adabiyotidan qoplab topish mumkin.

Men misollarni marhum shoirlardan olganim uchun ular ruhi meni kechirsin. Men bu iste`dodli shoirlarga oradan qancha-qancha yillar o`tgandan keyin malomat toshlarini otmoqchi emasman. Milliy badiiy tafakkurdan uzoqlashish mazkur shoirlar ijodida ayon ko`ringani va ana shu jarayon, hiyla beozor shaklda bo`lsada, keyin ham davom etgani sababli ular ijodiga murojaat etdim, xolos. Ammo, sirasi ni aytsak, ijtimoiy silsilalar davri adabiyotida milliy badiiy tafakkur ustuvorlik qildi, deb bo`lmaydi. Asqad Muxtor she`rlarini olamizmi yoki uning ayrim izdoshla riga razm solamizmi, ularda katta fikr mavjud bo`lgani hodda, bu fikrning ifodalanish usullarida milliy bo`yoq va ohanglar yetarli, deb bo`lmaydi.

Shubhasiz, men rus she`riyatidan yo ispan shoirlaridan o`rganishni bas qilaylik, demoqchi emasman. Men endi shu orttirilgan badiiy tajribani milliy adabiy an`analar bilan uyg'unlashtirish lozimligini, ularni milliy zaminga, xalqning milliy didiga va ehtiyojiga yaqinlashtirish yo`llarini axtarish zarurligini ta`kidlamochiman. Toki, jahon miqyosiga chiqajak o'zbek adabiyoti sof milliy va o`ziga xos jozibali hodisa sifatida etti iqlimda e`tibor qozonsin.

O'zbekiston serquyosh o`lka deb ta`rif va tavsif qilib kelinadi. Chindan ham, uning jug'rofiy joylanishi shundayki, bu yurtida xalq uchun, uning iqtisodiy turmushi uchun zarur bo`lgan barcha o`simlik, barcha mevali daraxt, barcha darmondorini o`zida mujassam etgan ko`kat o`sadi. O'zbekistonning yer osti

boyliklari to'g'risida esa so'zlamasa ham bo'ladi. Olimlarning bugungi nazariy xulosalariga ko'ra, O'zbekiston singari o'lkalar joylashgan mintaqada insonning aql-zakovati va iste'dodining gullashi uchun barcha tabiiy imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston quyoshga boshqa mintaqalarga nisbatan yaqin va qulay joylashgani sababli undagi o'zgarishlar bu zamin va uning kishilari hayotiga, ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Kishilardagi, ayniqsa, yosh avloddagi qiziqqonlik ham ana shu hodisaga aloqador bo'lsa ajab emas. Ammo, shu bilan birga, yurtdoshlarimiz o'z sajiyalarida o'lkamizning tabiiy xususiyatlariga uyg'un bo'lgan saxovat, ezgulik, mehribonlik, fidokorlik, mehmondo'stlik, bolajonlik, mehnatsevarlik, sabr-qanoat singari inson ruhining oltin zarralarini tajassum etganlar. Yurtimiz va kishilarimiz tabiatidagi ana shu xususiyatlar ularga xos bo'lgan tafakkur tarzining shakllanishida faol qatnashgan, albatta. Shu bilan birga, yurtdoshlarimiz asrlar davomida turli urf-odatlarini, xalqning milliy qiyofasini tashkil etgan diniy, lisoniy va badiiy madaniyat qatlamlarini ham ishlab chiqqanlarki, ular ham milliy tafakkurimizning sayqallanishida muhim mavqe tutgan.

Xalqimizning Abdulla Qodiriy romanlarini sevib o'qishining sababi shundaki, ularda ana shu milliy tafakkur shu'lalari balqib turadi. Butun bu asarlarni o'qir ekanmiz, kishilarimiz ruhiy olamidan asta siljiy boshlagan fazilatlar bilan uchrashamiz va bu fazilatlarining xira tortganligi bizni iztirobga soladi. Bugun Cho'lpon she'rlarini o'qir ekanmiz, ularda biz allaqachon unutgan o'ta samimiy, o'ta mayin tuyg'ular chappor urib turganini ko'ramiz. Bu she'rlarni o'qiganimizda, bo'ylarida yalpiz va ismaloqlar o'sib turgan arikdarning shaldirab oqishi eshitilgandek bo'ladi. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon asarlaridagi bizni maftun etuvchi ana shunday holatlar milliy badiiy tafakkur samaralaridir. Bundan keyin yaratilajak asarlarimizda ham ana shu milliy ruh tovlanib turishi lozim. Bundan keyin iste'dodli shoirlarimizga ta'rif berish uchun ularni "falonchi — o'zbek Pushkini", "falonchi esa o'zbek Lorkasi" deb atamasligimiz kerak.

To'g'ri, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlarning o'zgarishi bilan milliy zaminda, unga xos bo'lgan mundarijada, kishilarning shuuri, ruhiyati, emotsional olamida

ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Lekin jamiyatda qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermasin, xalqning milliy xarakteri, milliy tafakkuri yot ta'sirlardan omon saqlanishi lozim.

II.2. Milliy adabiyot taraqqiyotida adabiy uyushmalarning roli.

O'zbek adabiyoti tarixida (saroylar atrofidagi adabiy muhitni istisno qilganda) qalam ahlini o'zaro uyushtirib, adabiy harakatga yo'nalish berib turgan tashkilotlar bo'lmagan. Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti XX asrning birinchi choragiga qadar "Qo'qon adabiy muhiti", "Xorazm adabiy muhiti", "Toshkent adabiy muhiti" singari turli jo'g'rofiyadabiy hududlarga bo'lingan holda yashab keddi.

"Chig'atoy gurungi" esa O'zbekistonda tashkil topgan dastlabki adabiy uyushmadir.

"Chig'atoy gurungi". O'zbekiston yozuvchilari 1934 -yili Sovet hokimiyati tomonidan tashkil qilingan Yozuvchilar uyushmasiga birlashtirilgunlariga qadar o'zlarining bir necha kichikkichik jamiyatlariga ega bo'lganlar. Shulardan biri 1919 -yili tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi"dir.

Sovet davri o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan barcha kitob va maqolalarda "Chig'atoy gurungi" millatchilik va panturkizm g'oyalarini olg'a surgan, o'ta reaksion adabiy uyushma sifatida tilga olinib kelingan. Shuning uchun ham biror adabiyot tarixchisi bu dastlabki uyushma faoliyati bilan qiziqmay, uning vujudga kelishi va tugatilish tarixini o'rganmay kelgan.

Chig'atoy Chingizxonning ikkinchi o'g'li bo'lib, Amudaryo bo'ylaridan G'uljaga qadar yo-yilgan erlar — Movarounnahr, Ettisuv va Qashqar uning tasarrufida bo'lgan. Chig'atoy 1242 -yili vafot etganidan keyin uning ajdodlariga meros sifatida o'tgan bu jug'rofiy kenglik "Chig'atoy ulusi" deb atalgan. Shu kenglikda yashagan xalqlar tili "Chig'atoy tili", ular yaratgan adabiyot esa "Chig'atoy adabiyoti" deb yuritilgan.

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin, 1919 -yili Fitrat boshliq bir guruh shoir va olimlar birinchi adabiy uyushmani tuzganlarida, unga "Chig'atoy gurungi"

deb nom berishgan. Fitrat va uning maslakdoshlari mo'g'ul istilosidan o'zlariga qadar turkiy tilda yaratilgan adabiyotni o'zbek xalqining ma'naviymadaniy boyligi sifatida saqlab qolish va xalqning tom ma'nodagi mulkiga aylantirish maqsadida bu boy adabiy merosni to'plash, o'rganish va nashr etishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. Buning uchun esa ular avvalo savodsizlikni tugatish, murakkab arab imlosini isloh qilish va o'zbek tilining sofligini ta'minlash lozim, deb topdilar. "Gurung"ning ilmiy va ijodiy dasturini amalga oshirishga kirishgan Fitrat o'zbek mumtoz adabiyotini uning qadimgi davrlaridan boshlab o'rganishga kirishdi; elbek xalq ijodi namunalarini to'plash va o'rganishni o'z zimmasiga oldi; Qayum Ramazon o'zbek tilining tarixi va nazariyasini o'rgana boshladi; Cho'lpon ham o'zining serqirra ijodiy faoliyati bilan bu xayrli ishga hissa qo'shishga urindi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin sobiq Chor mustamlakalari, shu jumladan, O'zbekistonda sun'iy ravishda proletar adabiyoti yaratilayotgani va bu adabiyotning nafis san'atdan uzoq, g'arib bir adabiyot bo'lishi mumkinligini ko'rgan bir guruh yozuvchilar ana shu "Chig'atoy adabiyoti" an'alarini sakdab qolish niyatida "Chig'atoy gurungi"ga asos solganlar. Bu dastlabki adabiy uyushmaning asoschisi XX asr o'zbek adabiyotining buyuk siymolaridan biri Fitrat bo'lib, u Sovet davlati tongidayoq o'zbek xalqi endi "qizil" kishanlar bilan zanjirband etilishi mumkinligini sezgan va bu xavfdan qutulishning birdanbir yo'lini Turkistonda istiqomat qilgan xalqdarning bir bayroq ostida birlashishida va ular madaniyatini yuksaltirishda ko'rgan. "Chig'atoy gurungi"ning asosiy maqsad-vazifasi ham yolg'iz o'zbek adabiyoti va o'zbek tilining sofligini saqlab qolish, o'zbek adabiyoti erishgan badiiy yutuqlarni mustahkamlash edi. "Milliy-madaniy muxtoriyat" so'zlarini o'ziga shior qilib olgan "Chig'atoy gurungi" bir yil muqaddam qizil qo'shin tomonidan tormor etilgan "Turkiston muxtoriyati" g'oyasini adabiymadaniy jabhada davom ettirishni o'zining burchi deb bildi.

"Gurung" a'zolari 1922 -yili "O'zbek yosh shoirlari" degan she'riy to'plamni chop etdilar. To'plamdan Fitrat, Cho'lpon, Botuning she'rlari joy olgan edi. Bu she'rlar orasida Fitratning "Mirrix yulduziga", "Shoir", "Sharq", Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" singari asarlari ham bo'lib, ularda mazkur shoirlarning

Farg'ona vodiysidagi voqealardan junbisha kelgan qalblari hamon fig'on qilib turardi.

Mazkur to'plam e'lon qilingandan keyin Farg'ona ahlining tinchini buzgan qo'llar 1922 -yili "Chig'atoy gurungi"ning faoliyatiga ham chek qo'ydilar va "gurung" mustaqillik oftobi chiqquniga qadar qoralanib kelindi. Tarixdan bexabar kishilar "gurung"ni "panturkizm" g'oyalarini targ'ib qilishda, o'zbek madaniyati bayrog'ini turklar qo'lga berib qo'yishda aybladilar. Holbuki, Fitrat va uning maslakdoshlari bu masalada mutlaqo boshqa fikrda edilar.

Sovet hokimiyati "Chig'atoy gurungi"ning tashkil topishiga ruxsat berganida, siyosatga aralashmaslik shartini qo'ygan edi. Fitrat va uning birodarlari shu shartga qanchalik amal qilmasinlar, ularning o'zbek tilini chet ta'sirdan muhofaza qilish, mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va o'rganish, yangi o'zbek adabiyotining estetik go'zalligini saqlash hamda hayotni to'g'ri aks ettirishga qaratilgan ishlari kundankunga noto'g'ri baholana boshladi. Shuning uchun ham "Chig'atoy gurungi" nomatlub adabiy uyushma sifatida tarqatilib yuborildi.

"Nashri maorif". Dunyoqarashi 1917 -yilga qadar shakllangan va shu davrda ma'rifat sohasida jonbozlik ko'rsatgan ziyolilar "Chig'atoy gurungi" tarqatilganidan keyin ham xalqni maorif va madaniyat mevalaridan bahramand etib borishni vijdoniy burchlari, deb bildilar. 1922 -yilning so'nggi kunlarida navbatdagi norasmiy yig'inlariga to'plangan toshkentlik ziyolilar "Nashri maorif" nomli yangi jamiyatni tashkil etishga qaror qildilar. Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan tuzilgan bu jamiyatning ta'sischilari esa quyidagilar edi: Umarxon Akramxonov, Mannon Ramziy, Saidnosir Mirjalilov, Tolibjon Musaboev, SHokirjon Rahimiy, Muhammad Usmonov, Xolmuhammad Oxunov, Abdulhamid Sulaymonov (Cho'lpon) va Hamidullaxon Orifxonov. 1923 -yil 1 yanvarida "Turkiston" gazetasida ana shu ta'sischilardan tarkib topgan ijroiya guruhining Turkiston respublikasidagi maorif xodimlariga murojaati e'lon qilinadi. Bu murojaatda ta'sischilar jamiyatning maqsad va vazifalarini tushuntiribgina

qolmay, unga a`zo bo`lib kirishni ham maorif va madaniyat xodimlaridan iltimos qilgan edilar.

Agar shu murojaatni "Nashri maorif" jamiyatining ilk qadami sifatida qabul qilsak, uning vujudga kelish sanasi 1922 -yil dekabrining so`nggi kunlari bo`ladi. Toshkentdagi eski shahar xalq maorif sho`basi qoshida qad ko`targan jamiyat tez orada qanot yozib, respublikamizning boshqa qator viloyatlarida ham o`z bo`limlarini tashkil etdi. Jamiyatning Toshkent shahridagi bo`limi hay`ati esa quyidagi maorif va madaniyat fido-yilaridan tarkib topdi: SHokirjon Rahimiy (rais), Munavvar qori Abdurashidxonov (rais o`rinbosari), Mirkomil Aliev (kotib), Saidnosir Mirjalilov (xazinachi), Abdulhamid Sulaymonov (Cho`lpon), Xolmuhammad Oxunov, Tolibjon Musaboev, Zufar Nosiriy, Abdulla Avloniy, Salimxon Tillaxonov va boshqalar. Bu tilga olingan ziyolilardan tashqari, jamiyatning Toshkent bo`limi faoliyatida Mannon Ramziy, elbek, SHohid eson kabi siymolar ham yaqindan ishtirok etdilar.

XX asrning 10-20-yillarida Toshkentdagi ma`rifatparvarlik harakatining boshida xalqimizning ulug' farzandlaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov turgan. Bu davrda qanday ijtimoiy-siyosiy va madaniy tadbir amalga oshirilgan bo`lmasin, ularning aksari Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan maydonga kelgan. "Nashri maorif" jamiyati ham dastavval uning xayolida tug`ilgan. Ammo Toshkent aholisi o`rtasida katta obro`-e`tiborga ega bo`lgan bu siymo dastlab "oq", keyin "qizil" ta`qib ostida yashagani uchun, jamiyat manfaatidan kelib chiqib, rasmiy raislik qilish huquqini boshqalarga bergan. Shunga qaramay, u "Nashri maorif"ning faoliyatida asosiy rollardan birini o`ynagan. Munavvar qori bilan kelishuvga muvofiq, Shokirjon Rahimiy "Turkiston" gazetasining 13- fevral sonida "Nashri maorif" nima?, Munavvar qorining o`zi esa shu gazetaning 4- mart sonida ""Nashri maorif muvaqqat nashrlari, ikkinchidan, "gap"lari orqali, ayniqsa, musulmon o`qituvchilari va o`quvchi yoshlari o`rtasida katta tarbiyaviyma`rifiy ishlarni olib bordi; uchinchidan, "Ko`mak"ni o`z ixtiyoriga jalb etib, Rossiya, Turkiya, Germaniya va

boshqa mamlakatlarga o`qishga yuborilajak yoshlar bilan bog`liq muammolarni ham o`z zimmasiga oldi.

Jamiyatning barcha a`zolari uchun (faxriy a`zolardan tashqari) kirish badali yarim pud bug`doy bo`lgan. Jamiyat mablag`i a`zolik badallari, ionalari, davlat va jamoat muassasalaridan olinadigan yordam, nashrlar, pulli ma`ruzalar, spektakllar, sa--yillar va boshqa tadbirlardan tushgan daromad asosida to`plangan. Bu mablag`, o`z navbatida, muvaqqat nashrlar, maktablarning o`quvmetodik ehtiyojlari, xorijga o`qishga yuborilayotgan yo yuborilgan talabalar o`rtasida taqsimlangan. Jamiyatning 1923 -yildagi faoliyati, ayniqsa, samarali bo`ldi. Jamiyat bir -yil ichida oyoqqa turibgina qolmay, turli nashrlarni amalga oshirdi. Jamiyatning viloyat bo`limlari ham orqada qolmadi. Afsuski, biz turli kutubxonalarda saqlanib qolgan jamiyatning jurnal va nashrlarini hali to`plab o`rganib chiqqanimizcha yo`q. Bu — kelajakning ishi. Ammo hozirning o`zidayoq shu narsa aniqki, "Nashri maorif" qisqa faoliyati mobaynida xalq maorif va madaniyatini ko`tarish bo`yicha ko`pgina xayrli ishlarni amalga oshirdi. U olib borgan xayrli ishlarning asosiy nishabi esa istiqlol sari — elu yurtimizni milliy mustaqillikka olib chiqishga qaratilgan edi.

Jamiyat faollaridan biri Salimxon Tillaxonov o`z maslakdoshlari bilan suhbatda bunday degan ekan: "Biz shupaytga qadar burchakburchaklarda yashirinib ishlab kelgan edik, endilikda oshkora ishlash payti keldi. Shuning uchuya ham g`ayratimizga g`ayrat ko`shishimiz kerak". SHokirjon Rahimiy esa Munavvar qori bilan suhbatlashar ekan, bunday so`zlarni aytgan: "Agar jamiyatimiz biz xohlagan yo`nalishda yaxshi shilarni olib borsa, xudo xohlasa, tez orada ajnabay xalq^arning ta`siridan kutulib krlamiz ". Bunday nekbin kayfiyatga berilgan jamiyat a`zolari 1924 -yilning yanvarida uyushma faoliyatini yanada jonlantirish istagida hay`at tarkibini qayta sayladilar. Munavvar qori jamiyatga rais, G`ozi Olim Yunusov esa kotib etib saylandi. 30- yanvar` kuni "Nashri maorif" va "Ko`mak" jamiyatlari rahbarlari kengashi bo`lib o`tdi va unda har ikkala jamiyatni birlashtirish masalasi o`rtaga tashlandi. Ammo shu payt, kutilmaganda, Shokir Rahimiy "Nashri maorif" jamiyatini tarqatib yuborish haqidagi taklifni

o`rtaga tashladi. Va uning taklifi ko`pchilik ovoz bilan qabul qilindi. Sovetlar mamlakati shu vaqtda o`z hayotining og`ir bir davriga qadam qo`ygan edi. Leninizm "tugab", stalinizm boshlanganini ko`rgan maorifchilar shu davrning xosiyatsiz bo`lishini Stalinning maqbara oldidagi qasamlaridan aniq sezgan edilar. "Qizil holam". 1923 -yilda "Adabiy-badiiy to`garak" degan Yo`qsil (proletar) yozuvchilar uyushmasi tuzildi. Bu uyushma hozir San`at muzeyi joylashgan va o`sha yillarda Kafanov nomidagi Ishchilar klubiga qarashli binoda o`z faoliyatini boshladi. O`sha yillarda o`zbek adabiyotiga kirib kelgan yo`qsil shoir va yozuvchilar shu to`garakning a`zosi bo`lganlar. Lekin bu to`garak o`z atrofiga yo`qsil adabiyot vakillarini to`plash va tarbiyalashga qaratilgan vazifasini, ijodiy nochorligi orqasida, bajara olmadi va biror amaliy natijaga erishmadi. Shu sababdan uning a`zolari tez orada parokanda bo`lib ketdilar. 1926 -yili esa Samarqaddda "Qizil qalam" jamiyatiga asos solindi. Shokir Sulaymon rahbarlik qilgan bu jamiyatda Otajon Hoshim, Botu, Ziyo Said, Sotti Husayn, Anqaboy, Oltoy bilan birga yangi etishib kelayotgan Uyg'un, Hamid Olimjon, Mirtemir, Oydin singari yosh qalamkashlar ham bor edi. O`sha -yilning oxirlarida jamiyatning Farg`ona va Namangan viloyat bo`limlari ham tashkil etildi. Jamiyatning asosiy maqsadi O`zbekistonda barpo etilayotgan sotsialistik tuzumga xayrixoh yozuvchilarni to`plash va tarbiya qilish edi. Lekin "Qizil qalam" a`zolari orasida, bir tomondan, katta avlod vakillari, ikkinchi tomondan, yoshlar bo`lgani va ular, dunyoqarashlariga ko`ra, farkdangani uchun jamiyat yig`ilishlarida o`zaro qizg`in bahs va munozaralar teztez bo`lib turdi. Bu munozaralar 1928 -yilda, "Qizil qalam" majmuasining birinchi kitobi chop etilganidan keyin, ayniqsa, avj olib, keksa va yosh a`zolar o`rtasida jiddiy ixtilof yuzaga keldi. Bu ixtilof hatto jamiyatning ma`lum muddatda tarqalib ketishiga ham sabab bo`ldi. Ixtilof tufayli paydo bo`lgan qisqa muddatli tanaffusdan so`ng "Qizil qalam" 1928 -yili yana o`z faoliyatini davom ettirdi. 1929 -yilda esa jamiyatning boshqaruv organi qayta ko`rilib, Ziyo Said uning rahbari etib saylandi. Shu yili jamiyatning ikkinchi majmuasi nashrdan chiqdi. Sovet hokimiyati "Qizil qalam" orqali yozuvchilarni O`zbekistondagi sotsialistik qurilish mavzuiga bag`ishlangan, shuningdek,

SSSRning paxta mustaqilligiga erishishi uchun qishloq ahlini "qahramonona mehnat"ga safarbar etuvchi asarlar yozishga rag'batlantirdi. Bunday asarlar paydo bo'lishi bilanoq ular yangi o'zbek adabiyotining ajoyib namunalari sifatida baholandi. Shu tarzda yalang'och g'oyalar ifodalangan dolzarb mavzulardagi asarlar oqimi vujudga kela boshladi.

"Qizil qalam" O'zbekistonning bir necha viloyatlarida o'z bo'limlarini ochish va ular hayotini jonlantirish ustida qayg'uribgina qolmay, Ozarbayjon va Tataristondagi adabiy tashkilotlar bilan ham yaqin aloqa o'rnatdi.

"Yosh leninchi" gazetasi qoshidagi to'garak. Shu yillarda "Qizil qalam" jamiyati bilan birga ba'zi gazetalar va oliy o'quv yurtlari qoshida ham adabiy to'garaklar tashkil etilib, ular yosh qalam ahlini tarbiyalash ishlari bilan shug'ullandi. Shunday to'garaklardan biri Toshkentda, "Yosh leninchi" gazetasi qoshida tuzildi. "Yosh proletar adibshoirlari" deb nomlangan bu to'garak gazetaning yangi muharriri Sotti Husayn tashabbusi bilan 1927 -yilda tashkil topdi. Sotti Husayn gazetada o'z she'rlari, hikoya va ocherklari bilan qatnashgan yosh ijodkorlarni to'plab, ularning dastlabki asarlarini to'garak muhokamasiga qo'ydi, epaqali asarlar ustida mualliflar bilan birga ishlab, so'ng gazetada e'lon qilib bordi. Bundan ilhomlangan yoshlar to'garak atrofida yanada jipslashib, dastlabki adabiy saboqlarni shu erda oldilar. To'garak qatnashchilaridan biri — Mirtemirning "SHu'lalar qo'ynida" (1928) deb nomlangan dastlabki to'plami o'sha davrda katta voqea bo'ldi. Bu to'plamdan joy olgan aksar she'rlar shu to'garakda muhokama qilinib, sayqallangan edi. Mazkur to'plamga kirish so'zi yozgan Sotti Husayn iste'dodli yosh shoir tug'ilganidan g'oyat mamnun bo'lib, uning adabiy kelajagiga katta umid bildirgan edi. Bu, o'sha paytda Mirtemirga nisbatan uchto'rt ko'ylakni ortiq kiygan ayrim qalamkashlarning g'ashini keltiradi. Ular Mirtemirga qarshi maqolalar bilan chiqib, siyosiy idoralar e'tiborini uning kelib chiqishiga jalb etmoqchi bo'ladilar. Bunday oshkora g'arazgo'ylik va hasad yosh shoirni mayib qilishi mumkinligini sezgan murabbiy uni o'z panohiga oladi. U faqat Mirtemirni emas, boshqa yoshlarning adabiy kelajagi haqida ham qayg'urib, 1929 -yilda to'garak a'zolarining asarlaridan tarkib topgan "Ko'rmana" to'plamini bostirib

chiqaradi. Bu to'plamdan Mirtemir, Yashin, Sobir Abdulla, ergash, Hasan Po'lat, Yunus Latif va boshqa shoirlarning she'rlari o'rin olgan edi.

Mirtemir Sotti Husayn to'g'risidagi xotiralarida o'sha davrni eslab, bunday yozgan: "Sotti Husayn tashabbusi bilan qalamkashlarning "Ko'rmana " sarlavhali to'plami yorug'lik ko'rgani. ham katta hodisa bo'lgani yodimda. "Hozirgi voqelik badiiy asar uchun ilhom berishdan ojiz! " deb ayyuhannos solganga bu to'plam: "Ko'r, mana! " ma'nosida bo'lganligini Sotti Husayn faxr bilan adabiy yig'inlarda takrorlagani esimda".

Sotti Husayn markschi munaqqid bo'lgani uchun to'garak a'zolarida marksizm-leninizm ta'limotiga nisbatan hurmat tuyg'usini singdirish, ularni sovet davri mavzularida asarlar yozishga rag'batlantirishga urindi. O'zining markscha-lenincha qarashlariga haddan ziyod ishongan munaqqid hatgo bir turkum maqolalar yozib, o'zbek adabiyotining "O'tgan kunlar"dek buyuk asarini chilparchin qilib tashlamoqchi ham bo'ldi. Ammo u to'garak rahbari sifatida shu yillarda ko'plab shoirlarning shakllanishida muayyan rolni o'ynadi.

Proletar yozuvchilari uyushmalari. 1923 -yil martida bo'lib o'tgan Moskva proletar yozuvchilarining 1qurultoyida Moskva proletar yozuvchilari uyushmasi — MAPPga asos solinadi. Va o'sha yilning may oyida MAPP tashkilotchilari Butunittifoq proletar yozuvchilari uyushmasi (VAPP) ni tashkil etishga qaror qiladilar. Bu har ikkala uyushmani tuzishdan maqsad adabiyotga rahbarlik qilish huquqini partiyaqa berish va shu yo'l bilan proletar adabiyotini yaratishda ishtirok etmagan yozuvchilarni partiya yordamida chetlashtirish edi. Ularning asosiy shiorlari esa adabiy merosni o'rganishga chek qo'yish, yo'qsil yozuvchilar qarshisida keng ijodiy maydon va sharoitni yaratish, "yo'lovchi" yozuvchilarni adabiyotdan chetlashtirish orqali "burjua mafkurasi"ning jonlanishiga imkon bermaslik edi.

Afsuski, bunday qarashlar O'zbekistonda tug'ilib kelayotgan yo'qsil yozuvchilarga ham begona emas edi. Ular 1924 -yil iyunida yuqorida zikr etilgan Kafanov nomidagi Ishchilar klubida ta'sis yig'ilishini o'tkazib, VAPPning Toshkent bo'limi (TAPP) ni ochishga qaror qildilar. Shundan keyin TAPP

mutasaddilari MAPP va LAPP bilan aloqa o`rnatib, proletar adabiyotining ahvoli va vazifalariga bag'ishlangan kechalar o`tkazdilar, ma`ruzalar qildilar. 1928 -yil aprelida TAPP zamirida O`rta Osiyo proletar yozuvchilari uyushmasi (SAPP) tashkil etildi. O`z navbatida bu uyushmaning O`zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bo`limlari tuzilib, ular bu o`lkalarda proletar adabiyotining keng qanot yozishi uchun turli tuman tadbirlarini amalga oshirdilar. Uyushma qoshida rus tilida "O`rta Osiyo adabiyoti" gazetasi va "O`rta Osiyo xalqlarining sovet adabiyoti" jurnali nashr etila boshladi. 1928 -yilning aprel-may oylarida Moskvada Proletar yozuvchilarining 1-butunittifoq qurultoyi o`tkazilib, unda VAPPni Proletar yozuvchilari uyushmasining butunittifoq birlashmasi (VOAPP)ga aylantirish hamda Rossiya proletar yozuvchilar uyushmasi (RAPP)ni tuzish haqidagi qarorga kelindi. Shu vaqtdan e`tiboran VAPP o`z mavqeini yo`qotib, proletar adabiyotiga rahbarlik jilovi RAPP qo`liga o`tdi. RAPPchilar o`z qarorlarini qabul qilmagan barcha yozuvchilarga qarshi kurashib, ularga "yo`lovchi" yorlig'ini yopishtira boshladilar. Ular hatto M.Gor'kiy va V.Mayakovskiyni ham "yo`lovchi yozuvchilar", deb e`lon qildilar. RAPPning butunittifoq proletar adabiyotidagi kundankunga oshib borayotgan mavqeini ko`rgan respublika rahbariyati 1930 -yilda "Qizil qalam" jamiyatini tugatib, O`zbekiston proletar yozuvchilar uyushmasi (O`zAPP) ga poydevor qo`ydi. Umarjon Ismoilov bu yangi tashkilotning rahbari etib tayinlandi. Shu vaqtdan boshlab RAPPning O`zbekistondagi izdoshlari rus og'alarining har bir harakatidan ibrat olib, zavod va fabrikalardagi "ijodiy kuchlar"dan proletar yozuvchilarni etishtirishga kirishdilar. "Sel'mash" singari zavod va fabrikalar qoshida ishchilar uchun adabiy to`taraklar tashkil etildi. O`zAPP o`z saflaridagi ayrim yoshlarni "hayot maktabi"ni o`tash uchun bu zavod va fabrikalarga ishga yubordi. "Qizil qalam"ning g'oyaviy xatolarini tuzatish bahonasi bilan adabiy merosni o`rganishga qarshi kurash boshlandi. Proletar yozuvchilari 1-butunittifoq qurultoyining delegati bo`lgan o`zbek yozuvchi va tanqidchilari o`z hamkasblarini turli guruxdarga ajratib, "yo`lovchilar"ni har tomonlama siquv va ta`qib ostiga ola boshladilar.

Shu yillarda O`zAPPning mafkuraviy rahbarlaridan biri bo`lgan Sotti Husayn dastur ahamiyatiga ega bo`lgan bir maqolasida qalamkash birodarlarini guruh-guruhlarga ajratib, bunday yozgan edi: "...Endi yo`lovchilarning kimligini bilib qo`yaylik. Yo`lovchini belgilaganda, uning tabaqalarga bo`linishini ko`zda tutishimiz lozim.. Yo`lovchilarni ajratishda hozircha faqat mafkuraviy yoqdan qaraymiz, hozirgi adabiyotimizda o`ng burilishdagi yo`lovchi Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho`lpondir. Abdulla Qodiriy o`ng-yo`lovchidan bir muncha qaytib kelmakdadir.

Fitrat, Cho`lponlar inqilob boshida o`ta o`ng edilar. Keyin-keyin milliy boylar tomoni yengilishi bilan so`nib qoldilar. So`nishlari tabiiy edi. Ularga Chor inqilob bilan birga borib, yozuvchilikda kuchlanish bo`lsa, ikkinchi Chora butunlay so`nishdir... Shokir Sulaymon, Elbek, Oybek, N.Raqimiy so`llashmakda bo`lgan yozuvchilardir. Bular ichidan Shokir Sulaymon mafkuraviy yoqdan o`sib, so`llashib kelmoqda ".

UCHINCHI BOB

FITRAT DRAMALARIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

III.1. “Chin sevish”

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, mavzuning o'rganilish tarixi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslanib, malakaviy bitiruv ishi ob'ekti va predmeti, ishning nazariy-metodologik va asosiy ilmiy metodi, joriylanishi, tuzilishi haqida ma'lumot berildi. Asosiy qism uch bobdai iborat bo'lib, birinchi bobda «Chin sevish» pyesasida milliy uyg'onish g'oyasi» xususida fikr yuritildi.

Fitrat adabiyotga, umuman, ijtimoiy faoliyatga jadid sifatida kirib keldi. Ma'lumki, jadidlar mustabidlik asoratiga tushib qolgan Vatanni ozod va mustaqil ko'rishni, qadimiy milliylikmizni tiklashni, taraqqiyotda Evropa davlatlariga yetib olishni, jaholat va qoloqlikka barham berishni, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barcha sohalarni isloh qilishni orzu qilgandilar va o'zlarining butun faoliyatini shu orzularini ro'yobga chiqarishga yo'naltirdilar. Jumladan, Fitrat ham ijtimoiy hayotga faol aralashar ekan, dastlab Buxoro amirligidagi siyosiy va ijtimoiy voqelikni isloh etish fikrlari bilan chiqqandi¹. 1917 -yil fevral inqilobidan keyin esa, Turkistonni istibdod zulmidan qutqarishga bag'ishlangan bir qator publitsistik maqolalar e'lon qildi¹, o'ziining «Temur sag'anasi» nomli dramasida bu fikrlarini badiiy ifoda etdi. Xuddi shu davrda uning publitsistik ijodida xalqaro mavzuga ko'tarilish sodir bo'ladi. Fitratning mazlum Sharq va mustabid G'arb mavzuvdagi «Igliz va Turkiston», «SHarkda inglizlar», Afg'onistop ishlari», «SHarq siyosati» “Yig'la, islom!” kabi publitsistik maqolalari buning yorqin misolidir. Endi publitsist Fitrat «Turkiston va mustabidlar» mavzuidan ko'tarilib, «Mazlum Sharq va zolim G'arb» mavzuidek yirik va keng qamrovli darajaga ko'tarildi. Bu

¹Fitrat. Munozara. Toshkent, 1991.

esa, uning badiiy ijodida ham aks etdi. Xuddi shu tariqa «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari yuzaga keldi.

Mazkur dramalarning yaratilishi uchun yana bir narsa omil bo'lgandi: bu sho'ro hukumatining G'arb imperialistik siyosati fosh qilish yo'li bilan xalqaro miqyosda o'z mavqeini, obro'yini mustahkamlab olishni mo'ljallagan edi. 1919-20-yillarda sho'ro matbuotida G'arb imnerialistlarining, shu jumladan, Angliya jahongirlarining bosqinchilik, talonchilik siyosatini fosh etuvchi maqolalar ko'plab e'lon qilingandi. 1920-yil sentyabr oyida G'arb imperialistlarining bosqinchilik, talonchilik siyosatiga qarshi Bokuda Sharq xalqlarining I qurultoyi uyushtirilgan edi. Mana shu omildan ham Fitrat o'z maqsadini amalga oshirishda mohirlik bilan foydalangandi.

Demak, «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalariga asos bo'lgan mavzu G'arb jahongirligining yovuz qiyofasini ko'rsatish niyati edi. Bu niyat zahirida Turkistonnn yangicha shakldagi mustamlakachilikda tutib turgan sho'rolar hukumatining asl basharasini ochnb tashlash maqsadi ham mujassam edi. Ushbu bobda biz dramaturgning «Chin sevish»pyesasiga zamin hozirlaypti va bilvosita shu mavzuga bog'liq publisistik maqolalarini o'rganib chiqdik. «Sharqda inglizlar», «Sharq siyosati», «Afg'oniston ishlari» kabi siyosiy-publisistik chiqishlarda ushbu dramaga oziq bo'lgan ildizlarni topishga urindik. Dramaturgning siyosiy shaxs sifatidagi kamolotida bu maqolalar muhim o'rin tutganligi ko'rinadi. «Chin sevish» dramasining yozilish sabablarini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, quyidagilarni ham qayd qilib o'tish lozim:

Birinchidan, muallif drama janriga murojaat qilar ekan, uning «tomosha» ekanligini va bu vosita» orqali o'z g'oyasini «tomoshachi»ga kengroq yetkazish imkoni borligini yaxshi bilgan.

Ikkinchidan, dramaning tili jonli so'zlashuv tiliga asoslanishi va xalqning ushbu uslubni tezroq qabul qilishini hisobga olgan.

Uchinchidan, muallifning ilk asarlaridayoq dramaga moyillik bor ediki, («Munozara», «Hind sayyohining qissasi»dagi dialoglar nazarda tutiladi) dramaturg bu usulini ham chetlab o'ta olmagan.

To'rtinchidan esa, Fitratning bu vaqtga kelib dramaturg sifatidagi tajribasi ancha ortib qolgan edi. («Begijon», «Abo Muslim», «Qon» kabi dramalarini muallif 20-yillargacha yozib bo'lgan edi).

Beshinchidan, inqilobdan so'nggi dastlabki yillarda gazeta-jurnal chiqarish, kitob nashr etish ishlari nihoyatda qiyinchilik bilan og'ir iqtisodiy sharoitda olib borilgan.

Oltinchidan, xalq uchun gazeta-jurnal o'qiy olmaydigan mehnatkash omma uchun teatr tomosha qilish qulay bo'lgan.

«Chin sevish» dramasini yozgunga qadar Fitratning mustaqillikka eltuvchi kurash yo'llari tafakkurida shakllanib bo'lgan, ulkan bir dard ijodkor qalbini bezovta qilayotgan, bu dardni u xalqqa to'kmasa bo'lmasdi. L.N.Tolstoy «Dramani ko'nglida odamlarga aytadigan muhim gapi bor kishilargina yoza oladi» degani bejiz emas. Fitratning aynan inqilobiy ruhdagi dramalar yozishining asosiy sababi, xalqning milliy istiqlolga bo'lgan ehtiyojidir. Xuddi ana shu ehtiyojni badiiylashtirib sahnaga olib chiqishidan maqsad, millat uchun to'g'ri yo'l ko'rsatmoqdir.

«Adabiyot ochununda bir so'z bor. Derlarkim, bir adib bir tiyotr, yo bir roman yozganda, o'zining miyasindagi sezgularidan boshqa narsai tasvir eta olmaydur»'. «Chin sevish» qahramonlaridan biri Sarvarxon shunday deyar ekan, bu so'zlar Fitratning drama orqali aks etgan badiiy olamiga kirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Dramaturg «miyasiidagi sezgular» tabiiyki, yurt ozodligi bilan to'yingan edi. Xuddi shu «sezgi» shaklidagi g'oya «Chin sevish» asarining butun voqeligini qamrab oldi. Pyesada Hind ixtilolchilarining milliy ozodlik g'oyasi aks etgan. Asar syujeti ishq mavzusi bilan bog'langan bo'lsa-da, dramadagi butun voqea kurash g'oyasi tegrasiga jamlangan. Dramaturgning mahorati shundaki, bosqinchilarga bo'lgan nafrat tuyg'usi asarning har bir sahnasiga singdirib yuboriladi.

Dramaturg milliy ozodlik g'oyasini asar qahramonlari ongida mustabidlik tuzumiga nisbatan norozilik kayfiyatining tug'ilishi bilan bog'laydi. Tabiiyki, bu norozilik ipqilobiy kurash yo'liga boshlab boradi: «Inqilob va o'zgarish fikri ko'p qiziqdir. Bu fikr bir o'lkaga kirib oldimi; undan so'ng chiqarishi qo'ldan kelmas; o'lkani butun yondirsalar ham kullari ichra yashirinub qolar»'. Ushbu asarda mustamlaka Hindiston o'lkasiga «kirib olgan o'zgarish fikri»ning tub sabablari obrazlar va ularning nutqlari orqali yetarlicha dalillanadi. Malakaviy bitiruv ishida har bir personajning so'ziga alohida e'tibor qildik. Har bir so'zni asar g'oyasining ifodasiga va badiiy qimmatiga ko'rsatadigan ta'siri bilai belgilashga urinadi. Ichki «monolog-murojaat» xillari to'grisida ham fikr yuritadi. Asar bosh qahramoni Nuriddinxonning «monolog-mulohaza»sida maishiy ozodlik goyasi qay darajada maromiga yetgani xususida so'z bayon etiladi.

«Chin sevish» dramasining butun mohiyat e'tibori tomosha orqali xalqning «ko'zini ochish»ga, ya'ni mustabidlikning yovuz va sharmandali qiyofasini ko'rsatishga qaratiladi.

Gegelning fikricha, san'atda ikki xil dunyoqarash farqlanadi. Ulardan birinchisi san'atni «vazifadan iborat», ikkinchisi «vazifalardan holi», deb biladi². Demak, estetik ta'limotda ham san'at, jumladan, dramatik san'at vazifa bajarishi lozim, degan fikrni tasdiqlaydi. M.Behbudiyning maqolalaridan birida «Teatr nadur?» degan savolga «Teatr ibratnomadur»³ deya javob qaytarilishi asrimiz boshida haqiqatan ham teatrga «ibratnoma» deya qaralgani umumiy fikr shakllanganini ko'rsatadi. Fitrat o'z dramasida ana shu fikr chizig'ida harakat qiladi.

«Chin sevish» dramasida Sharq va G'arb ko'p jihatlari bilap bir-biriga qarama-qarshi qoyiladi. Ular orasidagi eng katta ziddiyat birini ikkinchisiga qarshi muvosiqli kurashga tortgan narsa G'arbnig SHarq ustidan hukmronligidir. Asar

² Anikst A. Teoriya drammi ot Aristotelya do Gegelya.// M.: Nauka. 1967.

³ Behbudi M. Teatr nadur? // Onna.1914.№9.B.15

mustamlakachilik tuzumiga cheksiz nafrat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan. Bu dramadagi personajlar vositasida yaxshi ochib berilgan. Mustabid inglizlar bilan mazlum Hindistonlilar orasidagi tafovut Sherxon, Ayyubxon, Rahmatulloh va G'ulom Haydarlar orasidagi dialoglar vositasida tomoshabinga yetkaziladi. Peshovar shahrida politsiya boshlig'i bo'lgan inglizni hindlar bomba portlatib o'ldirganlar. Buning uchun inglizlar jazo choralarini faqat Peshovardagi mahalliy aholiga emas, balki Dehlidagilarga ham qo'llaydilar. Bundan g'azablangan asar personaji o'z noroziligani yashirolmaydi:

«G'ulom Haydar. Uyimizda tinchgina o'tirganga qo'yasizmi?! Sherxon. Uni tangri biladir. Har holda erta kechadan boshlab uyimgizdan chiqmassiz.

G'ulom Haydar. Nechanchi soatdan?

Sherxon. Soat to'qqizdan tong otarg'acha. Ko'chada ko'ringan kishi ingliz esa, ertagacha saqlagandan keyin qo'yaveramiz. Hindistonlida esa, turmaga yuborib bir oy qamarmiz.

G'ulom Haydar. O'hho'! Bir ingliz bilan hindistonlik orasida shuncha ayirma bormi?»

Inson sha'nini, qadr-qimmatini yerga uradigan narsa bu milliy tahqirlash. Mazlum bo'lgan millat vakillari milliy tahqirlanishga mahkumdirlar.

Hokim millat vakili mazlumlarga qarata deydi: «Yuzboshi. Hoy, xoin musulmonlar! Ingliz kabi buyuk bir davlatning qo'l ostidan chiqmoq uchun tirishma. O... ingliz millati bu to'pponchalarni sizning ko'kraklaringizni teshmak uchun yasagandir».

Shu tariqa personajlar tilidan mustamlakachilikning og'ir va sharmandali turmushi anglashiladi.

Dramaturg Fitratning maqsadi mustamlakachilikning manfur qiyofasini ko'rsatish, istibdod zanjiriga solingan Vatanning xor bo'lishini anglatishdir. Modomiki, asar «Chin sevish» deb atalar ekan, unda muhabbat tasviri bo'lishi, bo'lganda ham yetakchi, asosiy mavzu tariqasida kelishi lozim edi. Lekin dramaturgning maqsadi yuqorida zikr etilgandek bo'lgani uchun muhabbat mavzui ikkinchi darajali o'ringa tushirilgan. Asardan buni daf'atan ayirib bo'lmaydi.

Sinchiklab e`tibor berilganda sevgi-muhabbat mavzui ikki qirraga ajralganini, biri personajlar sevgisi bo`lsa, ikkinchisi onaVatan sevgisi ekanini anglash mumkin.

«Chin sevis» drammasining bosh qahramonlari Nuriddin va Zulayxo birbirlarini sevadilar. Lekin onaVatan Hindiston ingliz mustamlakachilari etigining poshnasi ostida infab yotganida Nuriddinning shaxsiy muhabbatigagina intilishini o`ziga or deb biladi. Shu bois, u Zulayxoga bo`lgan sevgisini atrofdagilardan, hatto, yaqin do`stlaridan ham pinhon tutadi. OnaVatan istibdod zaijirida, uni qutqarish uchun kurashmoq kerak.

Taqdirning ishini qarangki, shunday mas`uliyatli paytlarda Nuriddinning qalbini Zulayxoga bo`lgan sevgi egallab oladi. Bundan u sevinish o`rniga qayg`uga tushadi. Zero, onaVatanni ozod etmay turib shaxsiy muhabbati ixtiyoriga berilish haqiqiy insonnig ishi emas. Haqiqiy muhabbat, ya`ni «Chin sevis» ona Vatanni jondan sevgan kishilardagina bo`ladi. Mana muallifning bosh g`oyasi.

Muallif muhabbatga bu tarzda muqaddas deb qarash Sharqqagina xos, degan g`oyani ilgari surmoqchi bo`ladi. Nuriddinning quyidagi gaplari buning dalilidir: «Ovrupoda hayvonlikdan boshqa narsa yo`qdir. Unlar ruhoniy lazzatdan bir narsa anglayolmaylar. Chin sevis va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdur».

Shuni ham ta`kidlash kerakki, dramaturg Nuriddinning Zulayxoga bo`lgan otashin sevgisini butun yolqini bilan tomoshabinga ko`rsatishi kerak edi. Bosh g`oya buni ochiq ifoda etishga «to`siq» bo`lib turibdi. Dramaturg mohirlik bilan buning yorig`ini topadi.

To`rtinchi pardadagi tush sahnasi yordamida tomoshabin buni anglab oladi. Tushida Zulayxoni ko`rgan Nuriddin o`zining vujudini o`rtovchi sevgisini izhor etadi. Bu sahna pyesaning eng ta`sirli o`rinlaridan sanaladi. Ishqiy-hissiy siyosiy drama yaratish oson ish emasdi. Dramaturg Fitrat esa, buning uddasidan ustalik bilan chiqa olgan. Shu bois ham «Chin sevis» spektakliga taqriz yozgan Cho`lpon «Yaqinda o`zbek sahnasi ulug` va ulug`ligi qadar yuksak va go`zal bir tomosha (pyesa) ko`rdi»', deb yozgandi.

Fitrat onaVatan ozodligi g'oyasini tomoshabinga singdirishni niyat qilgan. Bu g'oya siyosiy mazmunga ega bo'lgani uchun muallif personajlarning mushohadali monologi, ramzli dialogi kabi badiiy usullardan o`rinli foydalangan.

Dramada his-tuyg'u ifodasi yorqin aks etib turishi bilan birga, nozik psixologik holatlar manzarasiga ham yetarli ahamiyat berilgan⁴.

Muallif bosh g'oya Vatanni ozod qilish g'oyasini ochish uchun publisistika janriga xos xususiyatlarga ham murojaat qiladi. Buni Raisning quyidagi gaplari isbot qiladi: «To`rt yuz million bir ulusning tulki qiliqli o`n ming ingliz ma`muriga qul bo`lib turishi miyalarga sig`mas bir ishdur. Bu qiziq ishni ko`rgan tarixning, daxi bizning inson bo`lg`animizg`a ishong`usi kelmaydur».

Dramaning konflikti ham bosh goya bilan uzviy bog`langan. «Chin sevish»dagi asosiy to`qnashuv bir-biriga murosasiz siyosiy muxoliflar: erksevar vatanparvarlar bilan mustabidlar hamda ularga sotilgan xoinlar orasida yuz beradi. Shaxsiy manfaatlar, kelishmovchiliklar, zamirida yuzaga kelgan konfliktga e`tibor unchalik qaratilmaydi. Shu bois bo`lsa kerak, Nuriddin sevgilisi Zulayxo vositasida raqibiga aylangan Rahmatullohga nisbatan deyarli konfliktida bo`lmaydi. Umuman, muhabbat «masalasi» osonlikcha hal etiladi: qiz otasining maslagiga mos yigitni yaxshi ko`radi, otasi va boshqa kishilar (qo`mitachilar) sevishganlarning bir-birlariga yetishuvlariga yordam berishadi. (Nuriddin qo`mitachilar ko`magi bilan qutqarilib, Karimbaxsh xonadoniga yashiriladi). Bu hol asardagi dramatismni bosh g'oya talabi bilan yetarlicha rivojlantirmay qo`ygan. Bu juz`iy kamchilik «Chin sevish»ning g'oyaviy-badiiy qimmatini pasaytira olmaydi. Drama uzoq yillar tomoshabinlar xotirasida saqlanib qolgan. Buning boisi adib H.Olimjon yozganidek, «Fitrat Hindiston hayoti mavzusini aks ettirsa ham, mazmunda tamom Turkistonda qoladi».

Xulosa qilib aytganda, «Chin sevish» dramasi tom ma`noda milliy ozodlik kurashi g'oyalarini yoritishga bag`ishlangandir. Shu sababli asardaga barcha ijobiy qahramonlar ushbu g'oyani ozmi-ko`pmi amalga oshirishda alohida o`rin tutadi.

⁴ Cho`lpon. Chin sevish (xaqida) // San`at (qayta iashri). 1991..№4.B.4.

Asardagi ijobiy obrazlarning barchasi buning yorqin misolidir. Bu g'oyani yoritishda muallif barcha imkoniyatdan to'liq foydalanadi, shunday bo'lsa-da, ayrim xatti-harakatlarning yetarlicha dalillanmaganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Fitratning asosiy maqsadi olamshumul san'at asari yaratish emas,; millatning o'z taqdiri haqida o'ylashi uchun turtki beradigan tomosha yaratish edi. Ixtilolchilar timsoli orqali muallif ko'zlagan maqsadiga erishdi.

III.2. “Hind ixtilolchilari”

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobi «Hind ixtilolchilari» pyesasida milliy ozodlik pafosi» deb nomlanib, kurashchilar obrazlarini tahlil etishga bag'ishlangan, Fitrat birinchi pyesasini tugatganidan keyin aytadigan «gap»lari qolganligi sababli o'z g'oyasini rivojlantirish maqsadida ushbu dramasini yozadi «Chin sevish»da muhabbat masalalariga bog'liq holda qo'mitachilarning tor-mor etilishi bilan uning xotima topishi muallifni qoniqtirmagan. Dramaturg «Hind ixtilolchilari»ni «Chin sevish» dramasiining ikkinchi qismi va qahramonlarining o'limi dramani bevosita davom ettirishga yo'l qo'ymagan. Fitrat yangi qahramonlarga murojaat qiladi. Lekin bu obrazlarni yaratishda birinchi drama ta'siridan chiqib keta olmaydi. Keyingi dramaga ham ikki yosh sevishgan yigit-qizni qahramon qilib olishi bilan Nuriddin va Zulayxo obrazlari boshqa ismlarda qayta sahnaga chiqariladi. Asar qahramoni Rahimbaxshning Nuriddindan farqi u o'ta majnuntabiat emas, siyosiy kurashlarda shakllangan, tajriba orttirgan faol ixtilolchi. Ushbu dramada muallif ixtilolchilar obrazlarini yaratish asnosida Hindiston mustaqilligi uchun kurashayotgan qo'mitaning faoliyatini kengroq tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. «Chin sevish»da mustaqillik uchun kurash g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, bu asar ana shu g'oya qay tarzda amalga oshirilayotganini ko'rsatishi lozim edi. Pyesa syujetiga asos qilib olingan voqealarni anglashda muarrix B.Soliyeving «Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi» kitobi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda shunday deyiladi: «Inglizlarga iltimos, so'rash bilan ish chiqmasligiga, mo'tadillarga qarag'anda

yaxshiroq biladirlar. Bular qoshida birdan-bir chora qurol bilan qarshi chiqish, qurol bilan kurashish edi»⁵. Hindiston milliy ozodlik harakatchilarining bu maqsadlarini Fitrat butun asar g'oyasiga singdirib yuborishga harakat qildi. U dramaga asosan, milliy ozodlik kurashi vakillarini qahramon qilib oldi. Mustamlakachi guruh bilan ular o'rtasida kelishib bo'lmas kurashni aks ettirdi. Bosqinchi inglizlarni yurtdan faqat qurol kuchi bilan quvib chiqarish mumkin ekanligini badiiy tarzda ifoda etdi.

Fitrat vatan tushunchasiga o'ziga xos falsafiy mazmun yuklaydi. Insonning qadr-qimmatini belgilovchi eng katta mezonki «Vatan muhabbati» deb ataydi. Sevgining boshqa barcha ko'rinishlarini Vatan muhabbatidan tug'iluvchi sabab, deb ko'rsatadi. Drama qahramonlaridan Dilnavoz yor va Vatan muhabbatini ayricha olib qarashni istagida, Rahimbaxsh bu tushunchalarni alohida-alohida llib bo'lmasligini, ularning biri ikkinchisini to'ldiradigan tushuncha ekanligini anglatadi. Dramaturgning muhabbat haqidagi qarashlari A.Avloniyning «Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamakka g'ayrat va jasorat qilolmas»⁶, degan gaplariga hamohangdir.

Fitrat muhabbatga bog'lanib turgan insongina katta kurashlarga qobil ekanligini qahramonlari orqali isbotlaydi.

Dramaturg Fitrat «Chin sevish» da haqiqiy muhabbat egasi o'z Vatanining, xalqining ozodligi, erki uchun kurashmog'i lozim, degan g'oyani ilgari surar ekan, Nuriddinning iztiroblarini, ichki kechinmalarini ifodalash bilan chegaralangai bo'lsa, «Hind ixtilolchilari»da Dilnavozni sevgan Rahimbaxsh unga «Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?» deb onaVatanga hamda yoriga bo'lgan muhabbatning mushtarakligini, umumiyiligini, ularni ajratib bo'lmasligini ochiq aytadi. Shu bois «Hind ixtilolchilari»dagi barcha voqealar sevishganlar Rahimbaxsh va Dilnavoz tegrasiga jamlangan, ular ixtilol kurashining harakatlantiruvchi kuchlaridir.

⁵ Olimjon H. Fitratning adabiy ijodi haqida // Tom 6. Toshkent: Fan 1982.B.205242.

⁶ ' Soliev B. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. Toshkent: O'zbekiston. 1926.66 b.

Asardagi ixtilolchilar obrazlari talqini puxta o`ylangan ijodiy niyatning samarasidir. Istibdodga tushgan mamlakatni mustabid «olbasti» inglizning changalidan qutqarmoq uchun barcha mazlumlarni birlashishlari, yagona bayroq ostida kurash olib borishlari zarur. Shu g`oyani ifodalash uchun Fitrat ixtilolchilar obrazlarini kasbi, yoshi, e`tiqodi, dini, millati jihatidan ham xilma-xil qilib olgan; Rahimbaxsh, Dilnavoz, Abdusubbuh, Ornom Sipg, Badrinat, Deyianat, Fazlulloxdar ongli tarzda istiqlol uchun kurash maydoniga kirganlar. Mavlono No`mon ikkilanuvchi, e`tiqodi mustahkam bo`lmagan kimsa obrazi. Qurol (ketmon) ko`targan dehqonlar qat`iyat bilan kurashga yo`l olgan xalq ramzidir. «Qari» va «o`rta» yoshli kurashchilar, raqamlar bilan belgilangan istiqlolchilar ham ozodlik uchun kurashga otlangan kishilarning son-sanoqsiz ekanligini ko`rsatish maqsadida dramaga kiritilgan. Adashib, ongsizligi oqibatida mustabidlarga xizmat qilganlari ham mustaqillik uchun kurash rahbarlarini o`z saflariga chorlabdi. Bu ham bejiz emas. Istiqlol uchun butun xalq, barcha millat, Vatan farzandlarining hammasi oyoqqa qalqmog`i lozim. Mana muallifning g`oyasi.

Fitrat mahalliy aholining ichidan chiqqan xoinlarni Mavlono No`mon obrazi orqali ko`rsatgan. Shu o`rinda yozuvchi Hindiston voqeligini tasvirlasada, Turkistonni nazarda tutgani aniq ko`rinadi⁷.

Ma`lumki, yangicha qarash egalari jadidlar bilan eskicha dunyoqarashda qolgan ulamolar o`rtasida muttasil kelishmovchilik mavjud bo`lib, u fevral inqilobidan so`ng, ayniqsa, kuchaygan. Bizningcha, Rahimbaxsh Turkiston jadidlarining vakilidek kiritilgan. Uning «...ulus yo`linda jon berganlar uning soqoli, choponi uchun emas, ortiqlig`i, fazilati tarixi uchun o`lalar» deyishi ham ulamolarni, asrimiz boshidagi ta`rif bo`yicha, «katta salla, uzun chopon»larni nazarda tutadi.

Fitratning jadidlar qarashlarini aks ettirgani Rahimbaxshning xotin-qizlar to`g`risida aytgan fikrlarida ham aniq ko`rinadi. U xotinlarning «to`rt devor»

⁷ Qarang: Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: O`qituvchi, 1992. B.19.

ichiga qamalib, mahkum singari qolishlari kerak emas, deydi. «Xotunlar qamalsalar, ta'kidlaydi u, tarbiyasiz qolarlar. Tarbiyasiz xotunlar ulusning o'limi uchun yo'l ocharlar».

Shuni ta'kidlash kerakki, muallif «Chin sevish» ni ixtilolchi (qo'mitachi) larning qamoqqa olinishi bilan tugatgani uchun tomoshabinda «kurashish befoyda, «olbasti»dek kuchli ingliz bosqinchilarini yengib bo'lmaydi», degan tasavvur tug'ilmasligi uchun «Hind ixtilolchilari»da istiqlool uchun kurashchilarning g'alabalarini ham bir necha bor ko'rsatadi. Dilnavozning ikki marta tutqunlikdan qutilishi, Rahimbaxshning ingliz ma'murlari bilap talofatsiz kurashuvi, ayrim sahnalarda osonlik bilan ustunlikka erishuvi buning dalilidir. Muagshif istiqlool uchun qo'rqmasdan, dadil kurash yo'lga tushish kerak, degan fikrni ta'kidlab turadi. Shu bois ham Dilnavoz, qiz bola bo'lishiga qaramay, ingliz bosqinchilariga qarshi tap tortmay kurashadi.

Pyesada ozodlikni, erkni orzu qilib mushohadaga berilish o'rniga dadil harakatga kirishish kerak, degan g'oya ilgari suriladi. Bupi Fitrat qari dehqonning nutqi orqali ifodalaydi. U «Chiqaylik yoki yashaylik. O'lib ketaylik yoki o'ldirib bitiraylik. Boshqa chora yo'q,» deydi. Chunki uningcha, mahkumlik sirtmog'iga tushgan millat mustabidlar changalidan o'zini o'zigina qutqarishi mumkin. Uning «O'zlik kamarini yetti yerdan bog'lab (ketmonini ko'tarib), mana shu bilan uniig boshini ezmasak, tashqaridan kelib bizni qutqarmas», degan fikri g'oyat ahamiyatlidir.

Fitratning pyesa orqali turkistonlilarga singdirmoqchi bo'lgan fikrlaridan yana biri «birlik» g'oyasidir. Rahimbaxsh «inglizlarni tarqatmoq uchun Hindistonni birlashtirmoq kerak», deydi.

Ta'kidlash kerakki, Fitrat Turkistonda erk, istiqlool uchun kurashuvchilar safining kengayishiga ulamolarning to'siq bo'lib kelayotganini Abdusubbuhning Mavloni No'monga aytgan quyidagi ishi orqali ifodalaydi: «Siz mullalar tutash shunday qilasiz...Ulusni yetmish to'rt bo'lak qildingiz. Har bo'lakni boshqalarg'a yov etdingiz. O'lkamlarni ichki janjallar bilan to'ldirdingiz».

Bulardan xulosa qilish mumkinki, Fitrat «Chin sevish» dagiga qaraganda ham «Hind ixtilolchilari»da Turkistonni ko`proq nazarda tutgani sezilib qoladi.

«Hind ixtilolchilari»ga muallif ishchilar obrazlarini ham kiritgan. Bu bilan yozuvchi, bir tomondan, sho`ro mafkurachilarining «ko`zimi shamg'alat qilmoqchi», proletariat sinfi vakillari obrazini o`z asariga kiritganini ko`rsatmoqchi bo`lgan. Ikkinchi tomondan, o`z g'oyasi, ya`ni ishchimi, savdogarmi, dehqonmi barchasi uchun milliy istiqlol birinchi o`rinda turishini anglatishdir. Fitrat «proletariatning baynalmilal maslakdoshligi, maqsaddoshligi va o`rtoqligi» g'oyasini ilgari surmaydi. U «uchinchi ishchi» tilidan shunday deydi: «Men zulmga qarshu ishlaymen, bu yo`lda ochlikdan o`lsam-da, mayli».

Fitratning «Chin sevish», xususan, «Hind ixtilolchilari» pyesalarini qahramonlik asarlari ham deyish mumkin. Dramalarda jasurlik, mardlik, qahramonlik ulug`lanadi. «Hind ixtilolchilarida afg'on xalqining bo`ysunmas irodasi, erksevarligi alohida ta`kidlangan. Dramaga kiritilgan afg'on xalqi vakili Guldodxonning jasurligi, qahramonligi boshqalarga ibrat qilib ko`rsatilgandek tuyuladi. Umuman, istiqlol yo`lidagi jasorat, erksevarlik ataylab ulug`lanadi. Drama personaji Badrinat tilidan bu so`zlar shunday ifoda etiladi: «Afg'onlar botir kishilar. Inglizlarnng bir qilig'i bor: ingliz bo`lmag'on har kim bilan ko`rushganda, buyuk bir kattalik bilan gapuralar, ko`p so`ziga javobda bermaylar. Biroq bir afg'onlarni ko`rgach, yalinurg'a majbur bo`lalar».

Fitrat istiqlol mavzuida drama yaratar ekan, asosiy g'oyasining taqozosi bilan obrazlar, xarakterlarning badiiy sayqaliga yetarlicha e`tibor bermaydi. Sababi, bosh g'oyani tomoshabinga to`la yetkazish ma`lum darajada publitsistik likin, «fikriy yalang'ochlik»ni talab etardi. Munaqqid Vadud Mahmud birinchi pardaning kamchiligi tarzida «...Lolahardiyol degan bir kishining uzoq nutqi orqasida birdanbir «yurtimiz yonib turadi, ulusumuz ezilib bitdi, eshitasizmi» kabi munosabatsiz bir murojaati sovuq chiqqan. So`ngra, bumday xitobning kimga aytilganini yozuvchi o`ylamagan kabidir. CHunki asarda ko`rilgani kabi Raximbaxshning so`zlari Lolahardiyolning so`zlaridan, muhokamalaridan yuksak»<sup>1</sup> degan ganlarini keltiradi. Vadud Maqmurudning e`tirozi, umuman san`at

asarlariga qo`-yiladigan nuqtai nazardan to`g`ri. Lekii bu erda, bizningcha, pyesaning bosh g`oyasiii hisobga olmoq lozim. Ma`lumki, siyosiy mavzuni ochish uchun qo`llanilgan publitsistika har qanday adabiy asarning ma`lum darajada badiiyligiga xalal etkazishi tabiiydir. «Hind ixtilolchilari» pyesasini tahlil etishda ana shu xususiyatni hisobga olish zarur deb o`ylaymiz. Dramada ayrim monologlarning uzuproq chiqqanini, ba`zi personajlar nutqining kitobiyroq bo`lib qolganini ham shunday izoxlash mumkni.

Pyesada mustamlakachilar vakillarining ham obrazi yaratilgan. Bular orasida Marling obrazi ancha puxta ishlangan. Uning Mavloni No`monni o`z tomoniga og`dirishi tabiiy chiqqan.

Dramadagi Okunar, Porlinson obrazlari haqida bunday deyolmaymiz. Bu obrazlar nisbatan jo`nroq va sxematikroq xususiyatga ega. Buning boisi yana Fitratning i`esadan ko`zlagan maqsadi bilan bog`liq, ya`ni mustabidlar qanchalik kuchli va yovuz bo`lmasin, ularni mahv etish mumkin va lozim. Xudtsi shu nuqtai nazardan tilchi (josus) ayolning istiqloolchilar tomonidan saxnada otib o`ldirilishini \am shunday izohlash mumkin. Sotqin va josuslarning jazosini tomoshabip ko`z oldida berish, muallshr maqsadiga ko`ra, saboq vazifasini o`tash kerak.

Drama xotimasi muallif g`oyasining yorqin ochilishiga monaiddir. Pyesa iersonajlarining birgalikda: «Yurtimizni qutqarurmiz. Yashasin, istiqlool!» deb yugurib ketishlari asardagi bosh yuyapichg mantiqiy yakunidir.

Xulosa qilish mumkinki, Fitratning «Hind ixtilolchilari»da milliy ozodlik talqini ham tarixiylik nuqtai nazaridai, ham badiiylilik jihatidan o`rinli chiqqan. Muallif asarida qo`llagan publptsistik ruh, romantik tasvir bosh g`oya talabidan o`zini oqlaydi. Shu bois, uni madaniy merosnmiziing mustaqillik mavzuiga bag`ishlangan eng yaxshi asarlari qatoridan munosib o`rin oladi, deb xisoblaymiz.

Malakaviy bitiruv ishining uchinchi bobi «Fitrat dramalari tanqidchilik talqinida» deb nomlanadi. Adib Fitratning «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari yaratilgan paytidayoq tanqidchilarning, ijodkorlarning nazariga tushdi va bahosini oldi. Mazkur pyesaparga o`tgan 80 -yilga yaqin muddatda mupaqqidlar tomonndam turlicha, goho keskin qaramaqarshi nuqtai nazardan baho berildi va

talqin etildi. Buni, eng avvalo, ijtimoiy voqelikdagi siyosiy mafkuraviy vaziyat hamda muayyan davrdagi estetik mezonlar bilan izohlash mumkin.

«Chin sevis»ga dastlab Choʻlpon taqriz yozdi.¹ Bu taqrizida u iʼesani «buyuk va goʻzal» deb baholadi. Lekin nimasi bilan «buyuk va goʻzal»ligini isbotlashga urimasdan, dramaning «oʻzini va yoʻnalishini tegishincha tanqid yo taqriz qiluvni men bajara olmayman», deya spektaklning oʻynalishi, aktyorlarning rollarni qanday ijro etganini tahlil etishga kirishgan. 16 yoshidayoq «Adabiyot iadur»² degan nazariy maqola yoza olgan ijodkorning bir dramani gʻoyaviybadiiy jihatdan tahlil etishdan oʻzini olib qochganiniig sababini, bizningcha, boshqa narsadan izlash kerak. «Chin sevpsh»da shoir Choʻlponii qiynab kelayotgan masala istibdoddan qutshshsh goyasi aks etgani uchun yuqorida zikr etganimiz bahoni bergan va zamon qaltisligi uchun dramaning maqsadini oshkor qshshb, muallifining boshiga malomatlar keltirmaslik uchun uni ochiq talqin etmagan. Taqrizchi dramadagi gʻoyaning tomoshabipga mahorat bilan etkazilishiga aloqador jihatlarga asosiy eʼtiborini qaratgan.

«Hind ixtilolchilari»ga taqriz yozgan Vadud Mahmud esa uni oʻz davri drama nazariyasi asosida tahlil etishga uringai. Shu bois u «Uzbek sahnalarida shu kungacha koʻrsatilib kelgan pyesalarning eng kuchlisi, eng buyugi», deb baholagan holda, undagi obrazlar talqiniga oid muhim tanqidiy fikrlar ham bildirdi. Biroq u, bizningcha, Fitratning drama yozishdan koʻzlagan bosh maqsadini fahmlamagan. Holbuki, Fitratning oʻzi adabiyot nazariyasi, shu jumladan, drama nazariyasi boʻyicha bilim jihatidan Vadud Mahmuddan ortiq boʻlsa bordirki, kam emasdi.

Fitratning dramaturglik ijodiga baqo bergan B. Pestovskiy¹ va V. Yanlar «Chin sevis» va «Hind ixtilolchilari»ni oʻzbek dramaturgiyasining taraqqiyot jarayonndagi oʻrni va ahamiyati nuqtap nazaridan baholaganlar.

Mazkur dramalarni jiddiy tadqiq etgan munaqqvd Hamid Olpmjoidir. U 1936 -yilda yozgan «Fitratning ijodiy yoʻli» maqolasida har ikkala pyesani burjua millatchiligi mafkurasidap turib yozilgan, deya baho beradi. Shoʻro mafkurasi ijod erkinligpni boʻgʻib, har kanday badiiy asardan «millatchilik», «aksilshoʻroviylik»,

«mafkuraviy buzuklik» izlagan 30 yasharda H.Olimjonning mazkur pyesalarga boshkacha baho berishi ham qiyin edi.

Bu yerda Hamid Olimjonning faqat «millatchilik» degan soʻzini «millatnarvarlik», «erkparvarlik» atamaları bilan almashtirilsa, hamma narsa oʻz joyiga tushadi.

60-70-yillarda oʻzbek dramaturgiyasi tarixiga oid yozilgan dissertasiya ishlari, monografiyalarda Fitrat dramalari haqida soʻz ketganda, ularning gʻoyaviy kamchilnkka egaliga, millatchilik koʻrinishlari mavjudligi aytilgan.

Fitrat dramalari toʻgʻrisida haqiqat gaplar qisman «qayta qurish» deb atalgap davrga, 80-yillariing ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Bu davrda yaratilgan maqolalarda Fitratning hayoti va ijodi, uning asarlaridagi samimiylk, uning badiiy jihatdan puxta dramalar yozgani alohida qayd etildi. Xususan, adabiyotshunoslar O.Sharafiddinov, B.Qosimov, H.Boltaboyev, I.Gʻaniyev, A. Aliev va boshqalarning malakaviy bitiruv ishilarida boʻ xususiyat yaqqol sezildi.

Fitrat hayoti va ijodini ilmiy, xolis va keng miqyosda tadqiq etish respublikamiz mustaqi.tlikka erishgandan soʻng boshlapdi. Bu davrdagi malakaviy bitiruv ishilarining koʻlami va hajmi, mundariyasi va saviyasi «fitratshunoslik» yuzaga kelib shakllanganidan dalolat beradi. Adib ijodi boʻyicha uchta doktorlik va bir necha nomzodlik dissertasiyalari himoya etildi. Bularning barchasi Fitrat ijodiga xalqimiz qurmat va ehtiromining ramzidir. Muhimi, adibning dramalari qayta nashr 'etilib, xalqqa yetkazildi va ular haqida chin maʼnosila haq «gap»lar hadiksiramasdan baralla aytili.

XULOSA

Jadid adabiyoti vakillari o'z asarlarida davrning talabi, jamiyat a'zolarining ehtiyoji asosida yaratdi. Oktabr to'ntarishi bilan hokimiyatni egallab olgan bolsheviklar Turkistonda yangi shakldagi mustamlakachilik siyosatini makkorlik bilan davom ettirishdi. Mana shu hol dramalarning mustamlakachilikning mudhish qiyofasini ochishga, milliy ozodlik g'oyasini badiiy talqin etishga sabab bo'ldi;

Fitrat «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» asarlarida mazlum Sharq va mustabid G'arb mavzusini ko'tarib chiqdi. Bu dramalarni yozgunga qadar Fitrat publitsistikasida Buxoro amirligi siyosiy-ijtimoiy voqeligini isloh etish g'oyasi va zolim Rossiya mavzui keng ifodasini topdi, mazkur mavzuga oid «Temur sag'anasi» dramasi yuzaga keldi. Mazkur dramalarida ilgari surilgan Sharq va G'arb mavzui ham Fitratning 1917-1920-yillar publitsistikasida ishlangan edi;

Pyesalar garchi hudud nuqtai nazaridan Hindiston bilan chegaralangan bo'lsa-da, ularda Turkiston ham mazarda tutildi, xususan «Hind ixtilolchilari» dramasi bu jihatdan alohida o'rin tutadi;

Dramaturg Fitrat «Chin sevish»da mustamlakachilikning manfur qiyofasini ko'rsatib, mustabidlarning zolimligini ochib bergan, vijdoni, qalbida muhabbat bor inson o'z Vatanining erki, ozodligi uchun kurash maydoniga kirishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, «Hind ixtilolchilari»da istiqlol uchun kurashchilarni ko'rsatishga intildi. Obrazlarning kasbi, yoshi, dini va e'tiqodiga ko'ra xilma-xil badiiy talqinini berdi;

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» siyosiy mavzudagi asarlar bo'lib, ularning g'oyasi erkka, ozodlikka da'vat etuvchi publitsistik xususiyatga ega. Shu sababli ayrim obrazlar hayotiylikdan, tabiiylikdan bir oz uzoqdek tuyuladi. Aslida, Fitratning dramalardan ko'zlagan maqsadi shunday yo'l tutishni taqozo etardi. Shu nuqtai nazardan ayrim obraz va personajlardagi badiiy kemtiklikni izohlash mumkin;

«CHin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari o'z davrida istiqloлга chaqiruvchi o'tli asarlar sanaldi va xalqning qalbida uzoq yillar saqlandi. Bu mazkur asarlarning badiiy samarasi edi, deyish mumkin;

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalariga deyarli 80 yil davomida adabiyotshunoslikda, tanqidchilikda baho berilib keldi. Mazkur baholar jamiyatdagi mafkuraviy yoki siyosiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. 20--yillarda yozilgan A.Cho'lpon va V. Mahmud taqrizlarida samimiylik, dramalarga, uning muallifiga hurmat ifoda etgan bo'lsa, 20-yillarning oxiridan boshlab respublikamiz mustaqilligigacha bo'lgan talqinlarda sho'ro mafkurası tazyiqi ostida goh o'ta keskin (30-50-yillar), goh bir oz yumshoqroq (60-80-yillar) tarzda munosabatda bo'ldilar;

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'nggina Fitrat dramlari, uning butun ijodi singari, o'zining haqqoniy va ilmiy bahosini ola boshladi. Buning samarasi o'laroq «fitratshunoslik» yuzaga keldi. Fitratshunoslikning muhim va tarkibiy qismi adib dramalarining tadqiqiga bag'ishlangandir;

Umuman olganda, «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari Fitrat ijodida siyosiy mavzuga bag'ishlangan asarlar sifatida muhim o'rin tutganidek, o'zbek dramaturgiyasi tarixidan ham o'ziga munosib joy olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1998, 480 b.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1999, 182 b.
3. Abduazizova N. A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). T.: Akademiya. 2000, 238 b.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 2 jildlik. T. : Ma'naviyat. 1998, 570 b.
5. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. T. : O'rta va oliy maktab. 1960, 150 b.
6. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda o'qish darslari. T. : O'qituvchi, 1973, 197 b.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Adab durdonalari. T.:
8. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-4 jildlar. T.:
9. Abu Iso at-Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar. T. : 1993.
10. Ayniy S. Asarlar. 8 jildlik. 1-jild. T.: 1963, 355 b.
11. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 1-GU tomlar. T. : Fan, 1983, 1984, 1985, 1235 b.
12. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007, 283 b.
13. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. T. : O'rta va oliy maktab. 1963.
14. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. T. : Sharq. 1994, 140 b.
15. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. T.: Universitet, 2006, 125 b.
16. Jadidchilik va milliy istiqlool tantanasi. "Turkistonda jadidchilik harakati va mustaqil O'zbekistonning milliy istiqlool g'oyasi" mavzusidagi Respublika konferensiyasi materiallari. T. : 2002, 224 b.
17. Juvonmardiyev A. Harflar raqamlarga aylanganda. T. : Fan, 1966.
18. Jumaxo'ja Nusratulla. Feruz - madaniyat va san'at homiysi. T. : Fan. 1995.
19. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.
20. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. T.: O'qituvchi, 1994, 128 b.
21. Karimov N. Istiqloolni uyg'otgan shoir. T.: Ma'naviyat. 2000, 88 b.

22. Ne`matov Sh. E. O`zbek ma`rifatparvarlari yaratgan darsliklar va ulaning didaktik asoslari. T.: Fan, 2007, 107 b.
23. Saidov U. Yevropa ma`rifatchiligi va milliy uyg`onish. T.: Akademiya, 2004, 102 b.
24. O`zbek sovet ensiklopediyasi. Tom 12, T. : ensiklopediya, 1979. 650 b.
25. O`zbekiston Respublikasi (Ensiklopediya). T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997, 562 b.
26. O`zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000, 463 b.
27. O`zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000, 687 b.
28. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti (darslik) T.: O`qituvchi, 2005, 450 b.
29. Qosimov B. Milliy uyg`onish. T.: Ma`naviyat, 2002, 398 b.
30. G`aniyev I. Fitrat va fitratshunoslik. T.: Fan, 2005, 300 b.
31. G`aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. T.: Fan, 2005, 281 b.